

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**“FILOLOGIYA” FAKULTETI (Adabiyotshunoslik yo‘nalishi)
2-BOSQICH MAGISTRANTI**

SALOMOVA MA‘MURANING

MAGISTRLIK DISERTATSIYA ISHI

MAVZU: XALQ QISSALARIDA HAZRATI ALI TIMSOLI

Ilmiy rahbar: f.f.n. Xoliqulova G.

SAMARQAND– 2013

M U N D A R I J A

Magistrlik ishining umumiy tavsifi.....	3-9
I. Bob. Xalq qissalarida ijod ahli namoyandalarining badiiy timsollari.....	10-34
1.1. Xalq qissalarida Alisher Navoiy va Jomiy timsollari.....	10-22
1.2. Qissalarda Nasimiy va Mashrab timsollarining badiiy talqini.....	23-34
II. Bob. Xalq qissalarida din va tasavvuf namoyandalarining badiiy timsollari.....	35-58
2.1. Diniy-didaktik qissalar va ularda Hazrat Ali timsoli	35-48
2.2. Sa'd Vaqqos va Ibrohim Adham haqqidagi qissalar badiiyati	49-58
III. Bob. Xalq qissalarida tarixiylik va badiiy mahorat	59-74
3.1. Qissalarda hayot haqiqati va badiiy to`qima	59-67
3.2. Qissalarda obraz yaratish mahorati masalasi	67-74
Xulosa.....	75-79
Adabiyotlat ro`yxati.....	80-85

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritish xalqimiz ijtimoiy hayotining hamma sohalarida tub burilishlar davrini boshlab berdi. Bu davrda milliy-ma'naviy qadriyatlar tiklanib, mustaqillik mafkurasini vatandoshlarimiz shuuriga singdirish, yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalash kabi masalalar davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu o'z navbatida ilm va fanning boshqa sohaları qatori adabiyotshunosligimiz oldiga ham ulkan va mas'uliyatli vazifalar qo'ymoqda.

XXI asrda axborot almashinuvi, texnik taraqqiyot jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bir paytda bugungi avlod o'tmish ma'naviy merosimizdan uzilib qolmasligi muhimdir. Zero mustaqillikka erishib, endi rivojlanish sari qadam qo'yayotgan yurtimizga yuksak ma'naviyatli shaxslar kamol topishi uchun ular adabiyotimiz sarchashmalaridan imkon qadar ko'proq bahra olishlari lozim bo'ladi. Shu o'rinda Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish ayni muddaodir: "Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi tosh yozuvlar va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, falsafa, tibbiyot ... va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir ...

Bizning o'z oldimizga qo'ygan maqsadimiz esa, bunday ulug' zotlarning hayot yo'li va qoldirgan merosini to'liq tasvirlash emas, balki ularning eng buyuk namoyondalari timsolida ma'rifat, ilmu fan, madaniyat, din kabi sohalarning barchasini o'zida uyg'unlashtirgan xalqimizning ma'naviy olami naqadar boy va rang-barang ekanini isbotlab berishdan iboratdir. Bunday noyob va bebaho boylikni har tomonlama chuqur

o`rganish, uning ma`no-mazmunini farzandlarimizga yetkazish masalasi barchamiz, birinchi galda, ziyolilarimiz, butun jamoatchiligimiz uchun ham qarz ham farz bo`lishi shart, deb hisoblayman. Nega deganda, o`zimiz-bugun shu yurtda yashayotgan vatanparvar insonlar bu vazifani o`z zimmamizga olmasak, chetdan kelib hech kim hech qachon bu ishni qilib bermaydi”.<sup>1</sup>Bu teran fikrlar adabiyotshunoslik uchun ham dasturulamal vazifasini o`taydi.

Ushbu tadqiqot ishi ham shunday maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda yuzaga keldi. XVIII - XIX asrlar o`zbek adabiyoti tarixining ajralmas tarkibiy qismlaridan bo`lmish xalq kitoblari, xalq qissalari va shu uslubda yozilgan asarlar bir necha yillardan beri adabiyotshunoslarimiz e`tiborini tortib kelmoqda. Zero mamlakatimiz va undan tashqaridagi qo`lyozma kitoblar saqlanadigan fondlarda son-sanoqsiz nusxalarda mavjud bo`lgan bunday asarlar adabiy manba bo`lish barobarida xalqning tafakkuri, ma`naviy-axloqiy qadriyatlari, urf-odatlari voqelikni badiiy idrok etish darajasi, o`tmish ajdodlarga munosabati haqida ma`lumot beruvchi qimmatli manbalar sanaladi.

Xalq qissalari orasida tarixiy shaxslar, xususan, ijod ahli timsollari ishtirok etadigan asarlar ham talaygina. Ularning ayrimlari biografik xarakterga ega bo`lgan asarlar (“Shoh Mashrab”, “Said Nasimiy”, “Ibrohim Adham”, “Sa`d Vaqqos” vahokazo) bo`lsa, ayrimlari sarguzasht xarakteridagi qissalar bo`lib, ularda mashhur tarixiy shaxslar ba`zan asosiy, ba`zan epizodik obraz sifatida ishtirok etadi. Shunday asarlardan biri haqida taniqli adabiyotshunos olim Q.Tohirov shunday yozadi: "XVIII-XIX asrlar adabiyotida keng tarqalgan ham fors-tojik tilida ham o`zbek tilida ko`plab qo`lyozma nusxalarda tarqalgan, keyinroq litografik yo`l bilan nashr etdirilgan "Mirzo Hamdam" qissasi ana shunday asarlardandir...

¹I.Karimov. Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch.- T.: Ma`naviyat , 2008. 30-31 va 44-betlar.

Bu asarni o'rganish va uning adabiyotimiz tarixidagi o'rnini belgilash adabiyotshunosligimizning navbatdagi vazifalaridandir" [25]².

Bunday asarlarni turli nuqtai nazardan tadqiq va tahlil etish, kitobxonlarga etkazish hozir ham adabiyotshunoslikning muhim va dolzarb vazifalaridan bo'lib qolmoqda.

Mavzuning o'rganilish darajasi. “Xalq kitoblari”, “Xalq qissalari”, “Rivoyaviy nasr” (“Nasri rivayati”) kabi nomlar bilan yuritiladigan asarlarning janr xususiyatlari, mavzu, mazmun va g'oyaviy rang-barangligi uzoq yillardan beri nafaqat o'zbek balki xorijiy adabiyotshunoslarning ham e'tiborini qozonib kelmoqda. Zero bunday asarlar epik ijodning alohida bir turi bo'lib, folklor bilan yozma adabiyotimiz tarixida muhim o'rin egallab keladi. Mashhur sharqshunos olim H.Vamberi XIX asrning o'rtalarida Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan xalq romanlari haqida shunday yozgan edi: “o'zbeklarda bunday romanlar son-sanoqsiz ko'p bo'lib, ularda o'zbeklarning milliy his va iftixorini, mardlik va qahramonligini aks ettiruvchi ko'pgina manzaralarni topish mumkin”³.

XX asrning 70-80 yillarida adabiyotshunosligida xalq qissalarining ayrim namunalarini nashr ettirish, ilmiy tadqiq va tahlilga tortish bilan birga, ularning umumiy janr xususiyatlari, nazariy-poetik jihatlariga doir bir qator izlanishlar olib borildi. B.Абдуллаев [5], Р.Орзибеков [25, 26], Қ.Тоҳиров [25, 31, 32], Р.Маҳмудова [19], Р.Мажидов [18], Р.Жуманиёзов [12] каби олимларнинг ишларида халқ қиссаларининг генетик асослари ва манбалари, умумий поэтик хусусиятлари, мавзу ранг-баранглиги, тил ва услубий қирралари, уларнинг халқ оғзаки ижоди ва ёзма адабиёт билан ўзаро муносабати ҳақида бир қатор муҳим хулосалар билдирилди. Bu borada 5 tomlik “O'zbek adabiyoti tarixi” darsligining 3-tomidagi “Xalq

²Katta qavs ichida iqtiboslar olingan manbaning adabiyotlar ro'yxatidagi tartib raqami va sahifasi ko'rsatiladi.

³O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 3-tom. -Toshkent: Fan, 1978. 151-bet.

kitoblari” bo’limi muhim ahamiyatga ega boldi [39]. Biroq shunga qaramay, R.Jumaniyozov “Xalq kitoblarini o’rganishning muhim masalalari” nomli maqolasida: “Folkloristika va adabiyotshunosligimizda bu tipdagi ijod durdonalari to’la va atroflicha o’rganilgan emas...” va bu “...fanimiz oldida turgan muhim va jiddiy vazifalardandir”, deb yozadi⁴.

Ushbu dissertatsiyada o’rganilayotgan “Mirzo Hamdam” qissasi haqida Q.Tohirov, R.Orzibekov [25] va M.Hasaniy [42]; “Sayid Nasimiy” qissasi haqida S.Tohirov [33, 68], O.Norimova [67], S.Yo’ldosheva [70]; “Shoh Mashrab” qissasiga doir E.Musurmonov [65], “Ibrohim Adham” qissasiga oid Q.Tohirov [55], S.Raf’iddinov [56], Hazrat Ali timsoli qatnashadigan qissalar haqida S.Ochil [30] va boshqalarning ilmiy izlanishlari mavjud. Bu borada yosh olim S.Yo’ldoshevaning 2011-yilda himoya qilingan “Badiiy boigrafik qissalar poetikasi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi alohida ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda uchta qissa – “Ibrohim Adham”, “Said Nasimiy” va “Qissai Mashrab” asarlarining qiyosiy tahlili misolida biografik xarakterdagi qissalarning bir qator xususiyatlari yoritilgan.

O’zbek adabiyotshunosligida badiiy asarlarda tarixiy voqelikning aqs etishi bilan bog’liq hodisalarga doir ayrim tadqiqotlar hammavjud. Xususan, adabiyotshunos A.Kattabekovning 1982-yilda nashr ettirilgan “Tarixiy haqiqat va badiiy mahorat” nomli monografiyasida qisman xalq kitoblaridagi tarixiy voqelik haqida ham fikr bildirilgan [16]. Dissertatsiyaning asosiy boblarida mazkur ilmiy manbalar haqida kengroq to’xtalib, ularga munosabat bildiriladi. Ta’kidlash joizki, sanab o’tilgan ilmiy ishlar ba’zan mafkuraviy jihatdan eskirganligi, ba’zan tadqiqot ob’ektining o’zgachaligi, ba’zan nazariy jihatdan ushbu ishda ko’zlangan maqsadlarni yuzaga chiqara olmaydi.

⁴Jumaniyozov R. Xalq kitoblarini o’rganishning muhim masalalari // O’zbek tili va adabiyoti. 1988-yil, 5-on.39-bet.

Tadqiqot ishining yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ushbu magistrlik ishida tadqiq etilgan ayrim manbalar, Xususan, "Sa'd Vaqqos" qissasi qo'lyozma holidagina mavjud bo'lib, o'zbekiston hududida nashr ettirilmagan. Binobarin, ilk marotaba tadqiq etilmoqda;
- "Mirzo Hamdam qissasi" nashr ettirilgan bo'lsa-da ayrim maqolalardagi qaydlarni inobatga olmaganida, hozirga qadar alohida ilmiy tadqiqot obyekti bo'lmagan;
- xalq qissalarida Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Hazrat Ali, Sa'd Vaqqos kabi tarixiy shaxslarning badiiy timsol sifatida gavdalanishi masalasi ham ilk bora alohida ilmiy ish doirasida o'rganilmoqda;
- ijodkor shaxslarning badiiy timsollari hozirga qadar asosan Boborahim Mashrab va qisman Sayid Nasimiy misolida tadqiq etilgan. Bu masalada yangi manbalar va materiallarning jalb etilishi mavzuning chuqurroq tahlil etilishi, yangi fikr-mulohaza va xulosalarning tug'ilishiga omil bo'la oladi.

Yuqorida zikr etilgan holatlar tadqiqot mavzusi va ishining yangiligini belgilaydigan va asoslaydigan holatlardir.

Tadqiqotning obyekti va manbalari. Ushbu tadqiqot ishining ob'ekti tarixiy shaxslarning badiiy obrazlari yaratilgan xalq qissalaridir. Bunda asosan turkiy va fors-tojik adabiyotining mashhur namoyandalari Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Sayid Nasimiy, Boborahim Mashrab; din va tasavvuf namoyandalari Ali ibn Abu Tolib, Sa'd Vaqqos, Ibrohim Adham kabi shaxslarga e'tibor qaratildi.

Tadqiqot ishini bajarishda A.Quronbekov, H.Bobobekov va M.Hasaniy tomonidan tojik tilidan tarjima qilib nashr ettirilgan "Mirzo Hamdam qissasi" [58], O.Norimovanning 2009-yilda himoya qilingan "Said Nasimiy" qissasi matni va badiiy tahlili" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga ilova qilingan shoir Asiriy qissasining matni [67], "Shoh Mashrab" qissasining

Sayfiddin Rafʼiddin va boshqalar tomonidan nashr ettirilgan variant [62], “Ibrohim Adham” qissasining S.Rafʼiddinov [56] va Q.Tohirov [55] tomonidan tayyorlangan nashrlari, S.Rafʼiddinov tomonidan nashrga tayyorlangan “Hazrat Ali haqida qissalar” [63], tojik tilidagi “Paygʻomi Hazrat Ali” [59], “Qissai Zarqum” [63], “Saʼd Vaqqos” qissasining olim Q.Tohirov tomonidan transliteratsiya qilingan varianti [60] kabi asarlar asosiy manba vazifasini bajardi.

Qiyosiy tahlil maqsadida Ahmad yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” [21], Faridudin Attorning “Mantiq ut-tayr” [61], Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” [48], Abdurahmon Jomiy devoni [46] va boshqa manbalarga ham oʻrni bilan murojaat etildi.

Tadqiqot davomida bevosita shu mavzuga aloqador bolgan R.Orzibekov, Q.Tohirov, E.Musurmonov, S.Tohirov, O.Norimova va S.Yoʻldoshevaning tadqiqotlariga asosiy ilmiy manbalar sifatida tayandik.

Tadqiqotning metodologiyasi va metodi. Milliy istiqlol mafkurasi hamda yurtboshimizning milliy mafkura va madaniyatga doir dasturiy koʻrsatmalari, gumanitar sohalar va umuman ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yoʻnalishlariga oid qarashlari ushbu magistrlik ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Mavzuni izchil va atroflicha yoritish maqsqdida ilmiy bilishga asoslangan qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, ilmiy tavsif va sharh metodlaridan foydalanildi. Adabiyotshunoslik sohasida fundamental tadqiqotlar yaratgan B.Valixoʻjayev, A.Haitmetov, A.Qayumov, R.Orzibekov, Q.Tohirov, M.Muhiddinov, D.Salohiy kabi olimlarning ilmiy ishlaridagi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Ushbu magistrlik ishida tadqiq etilgan ayrim manbalar qoʻlyozma holida boʻlib, nashr ettirilmaganligi (“Saʼdi vaqqos”), ayrimlari nashr ettirilgan boʻlsa-da hozirga qadar ilmiy

tadqiqot obyekti bo'lmaganligi ("Mirzo Hamdam qissasi") ishning amaliy ahamiyatini belgilaydigan dastlabki omillardandir. Zero ularning o'rganilishi adabiyotimiz tarixining ayrim bo'shliqlarini qisman bo'lsa-da, to'ldiradi deb o'ylaymiz. Xalq qissalarida Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Hazrat Ali kabi tarixiy shaxslarning badiiy timsol sifatida gavdalanishi masalasi ham ilk bora alohida tadqiqot doirasida o'rganilmoqda. Tadqiqot materiallari, unda bildirilgan fikr-mulohaza va xulosalar "O'zbek adabiyoti tarixi" fani yuzasidan yaratiladigan o'quv adabiyotlarining XVII-XIX asrlarga oid bob va fasllarini to'ldirish, takomillashtirish imkonini berishi mumkin.

O'tmishda yashab o'tgan tarixiy shaxslar, xususan, ijodkorlar haqida yaratilgan ko'plab qissalar hali-hanuz qo'lyozma yoxud toshbosma holatida o'z noshirlarini kutmoqda. Yaqin kelajakda shunday asarlar nashr ettirilishini taxmin qilish mumkin. Binobarin, ushbu tadqiqot shu kabi asarlarni kelajakda tadqiq va tahlil qilishda ilmiy manba vazifasini o'tashi shubhasiz.

Ishning tuzilishi va hajmi. Magistrlik ishi Kirish (Ishning umumiy tavsifi), jami yettita faslni o'z ichiga oluvchi uchta asosiy bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bolib, umumiy hajmi __ sahifani tashkil etadi.

I. BOB. XALQ QISSALARIDA IJOD AHLI NAMOIYANDALARINING BADIY TIMSOLLARI

1.1. Xalq qissalarida Alisher Navoiy va Jomiy timsollari.

XVIII - XIX asrlar o'zbek adabiyoti tarixining ajralmas tarkibiy qismlaridan bo'lmish xalq kitoblari, xalq qissalari va shu uslubda yozilgan asarlar bir necha yillardan beri nafaqat o'zbek, balki bir qator xorijiy adabiyotshunoslarning ham e'tiborini tortib kelmoqda. Mamlakatimiz va undan tashqaridagi qo'lyozma kitoblar saqlanadigan fondlarda son-sanoqsiz nusxalarda mavjud bo'lgan bunday asarlar adabiy manba bo'lish barobarida xalqning tafakkuri, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, urf-odatlarini voqelikni badiiy idrok etish darajasi, o'tmish ajdodlarga munosabati haqida ma'lumot beruvchi qimmatli manbalar sanaladi. Mashhur sharqshunos olim H.Vamberi XIX asrning o'rtalarida Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan xalq romanlari haqida shunday yozgan edi: "O'zbeklarda bunday romanlar son-sanoqsiz ko'p bo'lib, ularda o'zbeklarning milliy his va iftixorini, mardlik va qahramonligini aks ettiruvchi ko'pgina manzaralarni topish mumkin" [39. 148]. "**Xalq kitoblari**" atamasi ilk bor XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida olmon olimi Györres tomonidan qo'llanilgan edi. Tarixchi va sharqshunos Herman Vamberi bunday asarlarni Markaziy Osiyoda keng tarqalgan "xalq romanlar" deb nomlagan. O'zbek adabiyotshunosligida bu atamaga sharh berish va xalq qissalari usulida yozilgan asarlarni aniqlash, o'rganish, nashr etish ishlari o'tgan asrning 60-70-yillarida keng tus olgan edi. Akademik V. Abdullayev "xalq kitoblari"ga "... og'zaki adabiyot bilan yozma adabiyotni bir-biriga bog'lovchi asarlar sikli..." [39. 141] – deb ta'rif bergan. N.Mallayev esa: "... unga yozma adabiyotning ayrim tendensiyasi va xususiyatlari singib boradi, xuddi shuningdek, yozma adabiyot asari ham folklorga xos xususiyatga ega bo'lib "xalq kitobi" tusini oladi," – degan

xulosani bayon etadi [20. 231]. R. Majidov ushbu masala bo'yicha maxsus tadqiqot olib borib, xalq kitoblarini janr sifatida e'tirof etgan [18. 169-176]. B. Zohidov: bunday asaralar o'zbek adabiyoti tarixida o'zining spesifik tomonlariga ega bo'lgan alohida soha, janr va yo'nalishidan birini tashkil etadi," – deb ta'riflaydi [12. 35]. E. Mirzayev bunday asarlarni qissa termini bilan yuritish ma'qul deb hisoblaydi [22. 14]. "Biroq bu termin bizgacha yetib kelgan xalq kitoblarning janriy xosliklarini o'zida to'la ifoda etolmaydi, - deb ta'kidlaydi R. Jumaniyozov. - Nazarimizda, xalq kitoblarini so'z san'atining – folklor va yozma adabiyotning oralig'i navi, sikl asarlar atamasi deb tushunish haqiqatga yaqinroqdir... Ular badiiy adabiyotning bir turi bo'lib, yana o'z ichida har xil janrlarga bo'linib ketadi. Mazkur tip asarlarning doston, latifa, ashula, maqol kabi janriy formalri, nasriy, nazmiy, liro-epik turlari borligi kuzatiladi. Bir tomondan qaraganda, xalq kitoblari folklor janrlarining yozma shakllaridek ko'rinadi. Aslida unday emas. Xalq kitoblarining tarixiy kelib chiqishi folklor bilan aloqador bo'lib, g'oyaviy – tematik jihatdan og'zaki adabiyot namunalaridan tubdan farq qilmasa-da, til va uslub, badiiy usul va tasviriy vositalarning qo'llanish tarzi, xarakteri jihatidan prinsipial ravishda ajralib turadi" [12. 37]. H. Oqbo'tayev yana qisqaroq qilib: "...yozma adabiyot bilan xalq og'zaki ijodi oratasida ko'prik, xalqa rolini bajaruvchi badiiy xazina – xalq kitoblari yoki ramanlari..." – deb yozadi [27. 65]. Ushbu fikrlardan kelib chiqib, xalq kitoblari og'zaki va yozma adabiyotni bog'lab turuvchi asarlar turkumi bo'lib, o'z ichida yana har xil janrdagi asarlar (doston, qissa, rivoyat kabi janr formalari, nasriy, nazmiy, epik va liro-epik turdagi asarlar)ni birlashtiradi, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

XX asrning 70-80 yillarida o'zbek adabiyotshunosligida xalq qissalarining ayrim namunalarini nashr ettirish, ilmiy tadqiq va tahlilga tortish bilan birga, ularning umumiy janr xususiyatlari, nazariy-poetik

jihatlariga doir bir qator izlanishlar olib borildi. Bu borada ayniqsa Q.Tohirov, R.Majidov, R.Mahmudova, R.Jumaniyozov kabi olimlarning tilga olingan ishlari e'tiborga molik. Mazkur ishlarida xalq qissalarining genetik asoslari va manbalari, umumiy poetik xususiyatlari, mavzu rang-barangligi, til va uslubiy qirralari, ularning xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot bilan o'zaro munosabati haqida bir qator muhim xulosalar bildirildi. Xususan, "O'zbek adabiyoti tarixi" akademik darslik kitobiining 3-tomidagi "Xalq kitoblari" bo'limi muhim ahamiyatga ega boldi. Biroq shunga qaramay, R.Jumaniyozov "Xalq kitoblarini o'rganishning muhim masalalari" nomli maqolasida: "Folkloristika va adabiyotshunosligimizda bu tipdagi ijod durdonalari to'la va atroflicha o'rganilgan emas..." va bu "...fanimiz oldida turgan muhim va jiddiy vazifalardandir", deb yozadi [12. 39].

XVIII-XIX asrlarda o'zbek va turkman adabiyotida yaratilgan qissalarni jiddiy tadqiq etgan adabiyotshunos olim Q. Tohirov qissalarni o'rganar ekan, ularni mavzu, mazmun va janriy xususiyatlari nuqtai nazaridan beshi qismga ajratadi: ishqiy – saguzasht qissalar, tarixiy qissalar, badiiy – biografik qissalar, qahramonlik, vatanparvarlik mavzisidagi qissalar, diniy – didaktik qissalarga bo'lishi mumkin deb, har bir guruhga kirivchi qissalarni nomma – nom qayd etadi. Jumladan:

- ishqiy – sarguzasht qissalarga "Yusuf va Zulayho", "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin", "Vomiq va Uzro", "Gul va Navro'z", "Qissayi Shahzoda Sanobar", "Saidbek va Labshakar", "Hurliqo va Hamro", "Dilovar va Gulasror", "G'arib va Shohsanam", "Mahmud va Nigor" kabi o'nlab qissalarni;

- badiiy – biografik qissalarga Said Nasimiy haqidagi Asiriy, Shams Osiy, Oqmuhammad kabilar tomonidan yozilgan qissalarni, shuningdek, "Qissayi devona Mashrab", Saidiy haqidagi "Qo'shsha butog'im", G'oyibiy haqidagi "Mulla G'oyib", Maxtumquli haqidagi

“Qissayi Maxtumquli”, shoir Avazmuhammad Bahriy haqidagi “Darvesh Bahriy”, Tolibiy haqidagi “Tolibiy va Sohibkamol”, Alisher Navoiy haqidagi turli rivoyatlar, “Navoiy va Guli” hamda “Sulton Husayn Boyqaro” dostonini;

- tarixiy va qahramonlik – vatanparvarlik qissalarga “Davlatyor”, “Yusuf va Ahmad”, “Alibek va Bolibek”, “Qissai Go`ro`g`li Sulton”, “Tulumbiy”, “Qissayi Amir Temur” singari asarlarni;

- diniy – didaktik qissalarga “Ibrhim Adham”, “Bobo Ravshan”, “Sa’d Vaqqos”, “Qahramoni Qotil”, “Muhammad Hanifa va Zufunun, “Qissai Umar bo bevazan”, “Qissayi Hasan va Husan” kabi qator qissalarni kiritadi [31. 75].

Yosh olim S.Yo’ldoshevaning 2011-yilda himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyasida yuqorida tasnif etilgan guruhlardan biri - Badiiy boigrafik qissalar, poetikasi tadqiq etilganligi bilan ahamiyatli. Mazkur tadqiqotda uchta qissa – “Ibrohim Adham”, “Said Nasimiy” va “Qissai Mashrab” asarlarining qiyosiy tahlili misolida biografik xarakterdagi qissalarning bir qator xususiyatlari yoritilgan.

Biroq mazkur tadqiqot umuman biografik xarakterdagi qissalar tadqiqiga bag’ishlangan bo’lib, bunday asarlarda jamiyatning turli toifa vakillarining badiiy timsollari yaratilgan. Jumladan yuqoridagi asarlarda tasvirlangan Sayid Nasimiy va Boborahim Mashrab isyonkor ruhdagi shoirlar bo’lsa, Ibrohim Adham tasavvufning zohidlik davri namoyandasi. Binobarin, ularga nisbatan munosabat ham, ularning badiiy timsollari ham tubdan farq qiladi. Shuni inobatga olib, xalq qissalarida ijodkor shaxslarning badiiy timsollari hamda diniy-tasavvufiy mafkuta vakillarining badiiy timsollarini alohida tadqiq etib, so’ngra umumlashtirish maqsadga muvofiq ko’rinadi.

XVIII-XIX asr qissalarida yaratilgan badiiy obrazlar orasida Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy timsollari ham alohida o’ringa ega.

Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy XV asr musulmon Sharqi madaniyatining ikki buyuk dahosi, yuksak tafakkur egasi bo'lish bilan birga, turkiy va fors tojik adabiyoti taraqqiyotiga eng katta hissa qo'shgan so'z san'atining haqiqiy ustalaridir. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy adabiy merosi hamda ular o'rtasidagi insoniy muhabbat, ustoz-shogirdlik va o'zaro ehtiromning yuksak namunasi bo'lgan munosabatlar asrlar davomida ilm ahli hamda oddiy kishilar uchun ibrat va hikmat xazinasi bo'lib kelgan. Buning natijasida XVI-XIX asrlarda yaratilgan tarixiy asarlar, tazkiralar, axloqiy-didaktik hikoyatlar to'plamidan iborat asarlarning ko'pchiligida ikki mo'`tabar inson shaxsiyatiga murojaat qilish, ba`zan tarixiy, ba`zan to'qima epizodlar asosida ularning badiiy timsollarini gavdalantirish an`anasini kuzatishimiz mumkin.

Alisher Navoiy shaxsiyati va badiiy timsoli turkiy xalqlar folklorining ham eng sevimli qahramonlaridan biridir. Butun umri davomida xalq dardi bilan yashagan, o'z ijodi bilan ham, xatti-harakatlari, mablag'i-yu mansabi bilan ham oddiy kishilarning muammolarini yechishga intilgan Amir Navoiy xalqning cheksiz hurmati va mehrini qozongan edi. Bu mehr o'z navbatida turli janrlardagi asarlarga ko'chdi. Turkiy xalqlar folklorida Navoiy timsolining qo'llanilishi bir qator o'zbek va xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan. Bu borada turkman olimasi K.Борджаковaning“Turkman xalq og'zaki ijodida Alisher Navoiy (Mirali) obrazi” (“Образ Алишера Навои (Мирали) в туркменском народном творчестве. Диссерт. канд. наук. – Ашхабат, 1973.) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini alohida qayd etish mumkin [64]. Ozbek xalq og'zaki ijodida ham Alisher Navoiy shaxsiyati bilan bog'liq ko'plab rivoyat, latifa va boshqa janrdagi asarlar mavjud bo'lib, bu haqda N.Mallayevning maxsus tadqiqotida atroflicha ma'lumot berilgan [20].

O'zbek adabiyoti tarixida, xususan, xalq kitoblarida Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy va shu adabiy muhit vakillari timsolining qollanilishi hodisasi bir qator olimlarimiz tomonidan qisman yoritilgan. Jumladan, adabiyotshunos olim Q.Tohirovning "Alisher Navoiy va XVIII-XIX asrlar qissalari"[31], "Jomiy va XIX asr o'zbek adabiyoti" [25] (R.Orzibekov bilan hammualliflikda) kabi bir qator maqolalarida xalq kitoblarida Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy timsollarining qo'llanish bilan boo'liq qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Shunday asarlardan biri haqida olim shunday yozadi: "XVIII-XIX asrlar adabiyotida keng tarqalgan ham fors-tojik tilida ham o'zbek tilida ko'plab qo'lyozma nusxalarda tarqalgan, keyinroq litografik yo'l bilan nashr etdirilgan "Mirzo Hamdam" qissasi ana shunday asarlardandir.

Bu asarda ulug' shoir Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaro, Mirzo Hamdam obrazlari yaratilgan, Jomiyning Samarqanddagi hayoti zaminida yuzaga kelgan rivoyatlardan foydalanilgan. Qissada Abdurahmon Jomiyning salaflaridan biri mashhur mutasavvuf Ahmadi Jomiy she'rlari va "Chahor pari" dostonidan foydalanilgan. Bu asarni o'rganish va uning adabiyotimiz tarixidagi o'rnini belgilash adabiyotshunosligimizning navbatdagi vazifalaridandir" [25].

Yuqoridagi maqolada tilga olingan asar "Mirzahamdam", "Mirzo Hamdam", "Qissai Mirzo Hamdam", "Qissai Mirzo Hamdam va Mavlono Jomiy" nomlari bilan yuritiladigan asardir.

"Mirzo Hamdam" qissasi turkiy va fors-tojik tillarida gaplashuvchi xalqlar orasida ancha keng tarqalgan asarlardan bo'lib, mamlakatimizning turli qo'lyozma kitoblar saqlanadigan fondlarda uning ko'plab qo'lyozma va toshbosma nusxalari mavjud. qissaning tojik tilidagi variantlaridan biri 1998 yilda sharqshunos olimlar A.Qurbonbekov, H.Bobobekov va M.Hasaniy tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan holda nashr ettirildi. Mazkur

kitobning muqaddimasida aytilishicha, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida mazkur qissaning 19 ta qo'lyozma nusxasi saqlanadi. Bundan tashqari, asar 1915 yilda Kogonda, 1916 yilda Toshkentda chop etilgan. Shu yili asarning forscha matni bilan birga o'zbekcha tarjimasi ham e'lon qilingan bo'lib, bu tarjimani Sidqiy Xondayliqiy amalga oshirgan va uni "Sipari g'am, tarjimai Qissai Mirzo Hamdam" deb nomlagan. Sidqiy bu asarni do'stlarining iltimosi bilan tarjima qilganligini ta'kidlaydi:

Ki bu "Mirzo Hamdam"ni turk aylangiz,
Ani chop etayluk qilib yaxshi biz. [58. 4]

Alisher Navoiy nomidagi SamDU Axborot resurs markazi Sharq qo'lyozmalari bo'limida ham mazkur asarning yigirmaga yaqin qo'lyozma va toshbosma nusxalari mavjud. Bu esa qissaning XIX asr oxiri XX asr boshlarida ancha ommaviylashgani ko'rsatadi.

Shu o'rinda asarning nomlanishi haqida ikki og'iz mulohaza. Yuqorida keltirilgan bayt aruzning mutaqorib bahrida yozilgan bo'lib uning taqte'si quyidagicha:

Ki bu "Mirzo Hamdam"ni tur-k aylangiz,
V - - V - - V - - V -
Fa`uvlun fa`uvlun fa`uvlun fa`ul

Matndan ma'lum bo'ladiki, "mirzo" so'zining ikkinchi bo'o'ini qisqa hijoga to'o'ri kelmoqda. Shu tufayli uni mirza tarzida, asar nomini esa "Mirzahamdam" yoki "Mirza Hamdam" tarzda ifodalash to'o'ridek ko'rinadi.

Qissadagi asosiy vaqealar Samarqandda Mirzo Ullo'bek asos solgan Madrasai oliyada kechadi. Unda Abdurahmon Jomiy bilan birga Sulton Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy timsollari ham ishtirok etadi. Asar voqealari "bir qaraganda kishiga g'alati tuyuladi". Uni nashr ettirgan olimlarning fikriga ko'ra:

1. Qissa muallifi Jomiyning "hamdam" so'zi uchraydigan g'azallari asosida bu voqeani o'ylab chiqargan va bu qissa orqali Jomiy g'azallarini xalq orasiga yoyishni istagan.

2. So'fiylik ta'limotida yosh yigit Alloh yoki pir sifatida talqin qilingan... Mirzo Hamdam orqali Allohga etishish, uning go'zalligini tarannum qilish yoki pirni topish istagi bayon qilingan [58. 5].

Yuqorida keltirilgan mulohazalar muayyan asosga ega, albatta. Zero xalq qissachiligida shunga o'xshash holatlarni ko'plab kuzatish mumkin. Ko'pincha murakkab mazmunga ega bo'lgan she'r yoki fikr tamoman boshqa mazmunda talqin qilinib, uning asosida syujetlar yuzaga keladi. Xususan, "Sayid Nasimiy" qissasida Mansur Xalloyning "Anal haq" o'oyasi, "Anol (Mansurning singlisi) haq" tarzida talqin etilgani va buning asosida Mansur va uning singlisi Anol haqida butun boshli syujet yuzaga kelganligini kuzatamiz. Biroq qissada Jomiyga nisbat berilgan she'riy matnlarning ko'pchiligi (xususan, "hamdam" so'zi qatnashgan baytlar) aslida Jomiy yoki Nuriddin Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub emas (Bu haqda keyinroq yana to'xtalamiz). Shuningdek, keltirilgan mulohazalarning ikkinchisi ham bizda jiddiy e'tiroz tuo'dirdi. Zero tasavvuf va tasavvufiy adabiyotda yosh bola yoki yigit "Alloh yoki pir" sifatida emas, "mukammal go'zallik" "Ahsani taqvim" - go'zal taqvim bilan yaratilgan mukammal xilqat, binobarin, Alloh qudrati va go'zalligining timsollaridan, mazharlaridan biri sifatida talqin etiladi. Mazkur qissa mazmunida ham buning nishonalarini ko'rishimiz mumkin.

Qissaning qisqacha mazmuni quyidagicha. Mavlaviy Jomiy bir qalandardan Samarqanddagi nihoyatda go'zal yigit ovozasi eshitib, uni ko'rish ishtiyoqi paydo bo'ladi va Samarqandga yo'l oladi. Samarqandga kelib bu xushsurat yigit Mirzahamdam ekanligi va u Sultoni husayn Mirzo qaramoo'ida bo'lib, unga nazar solish qattiq ta'qiqlanganligidan xabar topadi.

Shunga qaramay, ular bozorda uchrashishadi. Mavlaviy Jomiy kuradiki, ul nozanin yigitning jamoli nikob tagida xam oftob bilan baxslashadi. Mavlaviy Jomiy aql-u xushini yo'qotib, yerga yiqiladi. Birozdan so'ng, hushiga kelib bu baytnio'qiydi.

Mahi man ruyi xud bo parda pinhon karda meoyad,

Du la'lashro ba zeri xanda pinhon karda meoyad.

Tarjimasi:

Maning mohim yuzini pardada pinhon qilib kelgan,

Tabassum birla la'li shakarrin xandon qilib kelgan.

Mirzo Hamdam kalandarga kuzi tushadi, u oshikona she'rlar ukimokda edi. Mirza Hamdamning jaxli chikib, kilichini kinidan olada, Mavlaviy Jomiy Xazratlari yana bir bayt ukiydilar. Mirzo anglaydiki, bu bayt Jomiy Hazratlarniki. Hazratga indamay, yulga ravona buladi. Jomiy Xazratlari oxu figon kilib xujrasiga kaytadi. Bu orada Mirzo Hamdam bir qulvachasini "Kalandarning orkasidan borib, uning turar joyini surushtirishni" buyurdi. Qulvacha Jomiy Hazratlarning orqasidan borib, uning turar joyini bilib oladi va kelib Hamdamga aytadi. Mirzo Hamdam bir bahona qilib, Sultondan ijozat so'rab saroydan chiqib, Jomiy Hazratlarining hujrasiga boradi. Jomiy Hazratlari Mirza Hamdamning tashrifidan xursand bo'lib, uni mehmon qiladi. Ular tong-ertalabgacha suhbat qiladi. Sulton bu voqeadan xabar topib, jahli chiqib qalandarning hujrasiga kelib uni o'ldirmoqchi bo'lganida, Jomiy Hazratlari bu baytni o'qiydilar;

Joma gulgune daromad mast dar koshanaam,

Xez ey Hamdam, ki aftod otashe dar xonaam.

Tarjimasi:

Kulbam ichra kirdi bir gulrang choponlik mast bo'lib,

Turgil, ey Hamdam, uyimga tushdi o't, san yotma ko'p.

Javobiga Sulton bu baytni o'qiydi:

Joma gulgun kardam, ammo kiro xun kardam,
Sad jigar xun kardam, to joma gulgun kardam.

Tarjimasi:

Joma gulgun etim, ammo kimni dilxun ayladim,
Yuz jigar xun ayladim, to joma gulgun ayladim.

Sulton o'zicha mulohaza qilib ko'radiki, qalandar yaxshi odam ko'rinadi. Sulton aytdiki: "Ey devona, mendan ne tilasang tila, sen pok ekansen, bo'lmasa ming joningdan bir joning omon topmas edi. Bu aytgan pokiza she'rlaring Xazrati Mavlaviy Jomiyning so'zlariga o'xshaydi. Shu tobda hech nimam yo'qki, senga beray desam, xotiring jam bo'lsinkim, Mirzo Hamdamni senga berdim"- deb hujradan chiqib, o'z dargohiga boradi, va qilgan ishidan pushaymon bo'lib o'tirganlarida, Mir Alisher uning dargohiga keladi. Sultonning g'am-g'ussaga cho'mib o'tirganining sababini so'raydi. Sulton bo'lib o'tgan gaplarni boshdan-oxir bayon qiladi. Shunda Mir Alisher: "Bundan g'amga botmang, bir kishini jo'natamiz, qalandar va Mirzoni olib kelishadi",- deydi. Shunda Sulton: "Mirzo Hamdamni boshimdan sadaqa qilib, o'sha qalandarga ato qildim, kishi yuborib nechuk uni olib kelgaymiz? Shunday qilinglarki, agar dargohimga kelsa, hech kim unga gapirmasin, salomiga alik ham olmasin!". Tong otib, kun yorishgach Mirzo Hamdam hushiga kelib, Hazrati Jomiydan ijozat so'rab, dargohi oliyga boradi. U yerda hech kim Mirzo Hamdamning salomiga alik olmaydi, hatto Sulton va uning amirlari ham. Mirzo xamdam ma'yus tortib, dili vayron bo'lib, Sultonning dargohidan chiqib, Hazrati Mavlaviy Jomiyning oldilariga keladi. Bo'lib o'tgan voqealarni dilida yasharib, Hazrati Mavlaviy Jomiyga sir boy bermaydi. Shu zaylda bir necha kun o'tib, Navro'zi olam keladi. Hazrati Mavlaviy Jomiy qarasaki Mirzo Hamdam xomush ko'rinadi. G'amgin o'tirganining sababini so'raydi. Shunda Mirzo Hamdam: "Nechun g'amgin bo'lmay, Sulton bilan hamroh bo'lgan vaqtimda har neki tilasam

bajo bo'lardi. Garchi taqdir qalami ne bitgan bo'lsa, undan o'zgasi bo'lmas" - deb javob beradi. Hazrati Mavlaviy Jomiy aytadiki: "Ey farzand, Allohdan umidvormankim, ilgarigadan ham yaxshiroq bo'lgaysiz, Alloh sabr qilganlarni yoqtirur, inshoollo, sizning sarupongizni etkazur" deb, Mirzo Hamdamning ko'nglini ko'taradi. Keyin Mirzo Hamdam Hazrati Mavlaviy Jomiydan ruxsat so'rab, volidasini ko'rishga boradi. U ketgandan keyin Hazrati Mavlaviy Jomiy faryod-u zor boshlab, munojot qilib, nogoh uyquga ketadi. Tushida Hazrati Muhammad Mustafo sallalohu alayhi vasallamni ko'radi. U kishi shunday deydilar, "Ey farzand, g'am chekmagin, Mirzo Hamdamning libosini Xitoy podshohiga amr etgum". Hazrati Mavlaviy Jomiy "Ofarin, yo Rasululloh" - deydi.

Bu orada Xitoy podshohi ham tushida Hazrati Muhammad Mustafo sallalohu alayhi vasallamni ko'radi. U kishi Xitoy podshohiga shunday deydilar: "Ey podshoh, Samarqand viloyatida mening bir farzandim bor, uning nomi Hazrati Mavlaviy Jomiydir, uning bir farzandi borki, uning nomi Mirzo Hamdamdur. Navro'z sarupuso vajhidan ko'p g'am chekayapti, ularga bir bosh podshohlarga loyiq kiyim-bosh va yana bir Mirzo mingudek arabiy zotli ot tayyorlagil va yana Mirzo Hamdamga hamrohqirq yigitchaga qirq bosh sarupo tayyor qilgil va yana Hazrati Mavlaviy Jomiyga hamroh to'rt yuz tolibiilmga bosh-oyoq sarupo tayyorlab, ravona qilgil". Podsho bu xizmat yuzasidan o'rnidan turib, ta'zim bajo qildi. Payg'ambari Xudo aytdilar: "Ey farzand, oftob tomonga qarab yuring, anda bir tepa bor, ul tepaning tagida Jamshidning xazinasi borkim adogi yo'q. Bu xazinani shul xizmatga sarflang, qolganini o'zingiz bilasiz". Shularni aytdilar va urinlaridan turib g'oyib bo'ldilar. Xitoy podshohi aytgan xazinani topib, sarupolarni tayyorlab, Samarqandga yuboradi. Alqissa, Mirzo Hamdam bu sarupolarni kiydilar. Mirzo Hamdamning siniq ko'ngli shodmonlikka o'zgardi. Qirq saruponi Mirzo Hamdamning jilovida bo'lgan qirq yigitga

kiydirdilar. To'rt yuz saruponi Hazrati Mavlaviy Jomiyning xizmatlarida bo'lgan to'rt yuz tolibi ilmga kiydirdilar. Hazrati Mavlaviy Jomiy xursandchiligidan ketma-ket bayt o'qiy boshladilar. Bu baytlarni eshitgan olamon orasida g'avg'o qo'zg'aladi. Bu kalandarning she'ri Hazrati Mavlaviy Jomiyningidir, agar shunday bir ulug' zot bo'lmaganlarida Xitoy podshohi bu qalandarga bu qadar ko'p mol yubormas edilar.

So'ng, Hazrat Jomiyning shaxsiyatlari oshkor bo'ladi, Mirzo Hamdam, Sulton Husayn va butun Samarqand ahli u kishiga ta'zimda bo'ladi. Asar xotimasida Jomiy Ullo'bek madrasasi mudarrisi etib tayinlanadi.

Asar oxirida Mavlaviy Jomiyning yangi usul "Naqshi Mullo"ni yaratganligi tilga olinadi: "Shu asnoda Hazrati Jomiyga jazba tegdi. Ular "Naqshi Mullo"ga tushdilar va yoronlariga ta'lim berdilar" [58. 48].

Qissa syujetida biz Sharq adabiyotining ko'pgina asarlariga xos lihatlarni ko'rishimiz mumkin. Xususan, unda Sharqda mashhur bo'lgan "Shayx San'on" hikoyati, "Ibrohim Adham" qissasini eslatadigan epizodlar mavjud (Bu haqda uchinchi bobda batafsiroq to'xtalamiz).

Qissadagi Sulton Husayn va Alisher Navoiy timsollari to'lig'icha badiiy to'qima natijasi bo'lib, ularning faoliyati Samarqandga ko'chirilgan. Biroq Alisher Navoiyning vazir va maslahatchi sifatida tasvirlanishi tarixiy haqiqatga mosdir.

Ijodkor shaxslar haqida bitilgan qissalarga xos bo'lgan muhim jihatlardan biri, ularda she'riy parchalar bilan birga turli janrlarda yozilgan she'rlar ham mavjud bo'lishidir. Mazkur she'rlar ko'pincha asar qahramonlariga nisbat beriladi. Biroq ular doimo ham shu muallif qalamiga mansub bo'la b ermaydi. "Sayid Nasimiy", "Qissai Shoh Mashrab" asarlariga xos bo'lgan bu jihat "Mirzo Hamdam" qissasida ham kuzatiladi. Asar tarkibida ko'plab she'riy matnlar mavjud bo'lib, ular asosan g'azal va ruboiy janrlariga mansub. She'rlar fors-tojik tilida bo'lib, aksariyati Jomiyga nisbat

berilgan, shuningdek, Sulton Husayn va Mirzo Hamdam nomidan keltirilgan misralar ham bor. Biroq yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, mazkur she'rlarning hammasi ham aslida Jomiy yoki Nuriddin Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub emas. Bu haqda yuqorida tilga olingan olim R.Orzibekov va Q.Tohirovning maqolalarida fikr bildirilgan edi: "Qissada Abdurahmon Jomiyning salaflaridan biri mashhur mutasavvuf Ahmadi Jomiy she'rlari va "Chahor pari" dostonidan foydalanilgan". Tadqiqotning uchinchi bobida asar tarkibidagi ayrim sherlar avtorizatsiya nuqtai nazaridan qiyosan o'rganiladi.

Umuman olganda, o'ziga xos mazmun va g'oyalar tizimiga ega bo'lgan mazkur qissa o'zbek va tojik adabiyoti tarixida muhim o'rin egallaydi. Unda nasr va nazmning aralash tarzda qo'llanilishi, she'riy matnlar mumtoz she'riyat an'analari asosida yaratilganligi, tili, uslubi "Xalq kitoblari" ning janriy belgilariga mos keladi. Tilga olingan nashr asarning tojik tilidan qilingan tarjimasi ekanligini qayd etgan edik. Biroq uning turkey yoki o'zbek tilida ham ko'plab nusxalari mavjud. Ular o'rtasida muayyan tafovutlar ham bor. Buni asarni nashrga tayyorlovchilar ham alohida qayd etishgan. Asarning yaratilish asoslari va jarayoni, mazmun va o'oyasi, undagi obrazlarning ramziy-majoziy mohiyati haqida uzil-kesil xulosa chiqarish hozircha mushkul. Buning uchun, nazarimizda uning nusxalarini qiyosan tadqiq etish maqsadga muvofiq ko'rinadi.

1.2. Qissalarda Nasimiy va Mashrab timsollarining badiiy talqini.

Markaziy Osiyo xalqlari azal-azaldan shoirsevarligi, shoirparvarligi bilan ajralib turadi. Professional shoirlar ham oddiy xalq orasidan yetishib chiqqan baxshilar ham doimo xalqning ardog'ida bo'lgan, ularga nisbatan kishilarning ehtiromi turli ko'rinishlarda namoyon bo'lgan.

Adabiyotshunos Q.Tohirovning nomzodlik dissertatsiyalarida ta'kidlanisicha Markaziy osiyoda yashovchi turkiy xalqlar orasida Ijodkor shaxslar hayotidan hikoya qiluvchi, tarixiylik va badiiylik qorishib ketgan qissa va dostonlar juda ko'p. Xususan, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Pahlavon Mahmud, Sayid Nasimiy, Boborahim Mashrab, Mullanafas, Maxtumquli, G'oyibiy, Bahriy kabi fors-tojik va turkiy (o'zbek, turkman) adabiyotning mashhur vakillari haqidagi qissalar shular jumlasidan. Bular orasida Boborahim Mashrab va Sayid Nasimiy haqidagi qissalar alohida mavqega ega.

Sayid Imoduddin Nasimiy va Boborahim Mashrab haqida yaratilgan qissalar, ularning manbalari, muallifi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida adabiyotshunoslikda bir qator ishlar bajarilgan. Agar "Qissai Shoh Mashrab" asari, uning turli nusxalari haqida ilmiy tadqiqotlar o'tgan asrning boshlaridayoq yaratila boshlangan, o'tgan bir asr davomida bu borada muayyan tarix vujudga kelgan bo'lsa, "Sayid Nasimiy" qissasi haqidagi ilmiy mulohazalar o'zbek adabiyotshunosligida XXI asrdagina paydo bo'ldi.

"Sayid Nasimiy" qissasi haqida S.Tohirov [33. 68], O.Norimova [67], S.Yo'ldosheva [70]; "Shoh Mashrab" qissasiga doir E.Musurmonov [65], va boshqalarning ilmiy izlanishlari mavjud. Bu borada yosh olim S.Yo'ldoshevaning 2011-yilda himoya qilingan "Badiiy boigrafiq qissalar poetikasi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi alohida ahamiyatga ega.

Oldin ham qayd qilinganidek, ushbu tadqiqotda uchta qissa – “Ibrohim Adham”, “Said Nasimiy” va “Qissai Mashrab” asarlarining qiyosiy tahlili misolida biografik xarakterdagi qissalarning bir qator xususiyatlari yoritilgan. Shularni inobatga olgan holda, biz quyida “Sayid Nasimiy” va “Qissai Mashrab” asarlarida shoir timsollarining ifodalanishi bilan bog’liq asosiy jihatlar haqida muxtasar tarzda to’xtalib o’tamiz.

“Sayid Nasimiy” qissasining muallifi, yaratilgan davriga oid adabiyotshunoslikda bir qator munozaralar mavjud. Bu borada adabiyotshunos S.Tohirovning mulohazalari e’tiborga molik. U o’zining “O’zbek shoiri Asiriy va “Sayid Nasimiy” qissasi” nomli maqolalarida asarning muallifi kim ekanligini asoslovchi bir qancha dalillar keltiradi va fikrlarini aniq ilmiy xulosalar bilan izohlaydi:

Demak, “Sayid Nasimiy” qissasining Andalibga nisbat berilishida asos qilib olingan bu masnaviy chindan ham turkman shoiri qalamiga mansub bo’lsa-da, bu asar tarkibiga kotibning xatosi tufayli kirib qolgan. Bu fikrni tasdiqlovchi omillardan biri shuki, 487-inventar raqami ostidagi qo’lyozmada bu masnaviy umuman mavjud emas.

Asar xotimasidagi quyidagi baytlarga e’tibor qaratsak, Asiriyning kotibgina emas, balki boshqa bir manba asosida qissani qayta ishlagan yoki tarjima qilgan muallif ekanligi ayon bo’ladi:

G’araz mendinki qolgay yodgore,
O’qug’onda yana ham do’stu yore...
Musohiblar faromush etmasin deb,
Maning nomu nishonim ketmasun deb.
Qilibdur bir necha so’zlarni manzum,
Umid aylab Asiriy ismi ma’dum.
Duo birla qilinglar daftarim sayr,
Biayn Olloh bo’ldi tammat al-xayr.

Ma'lum bo'ladiki, „Sayid Nasimiy“ qissasining muallifi Asiriy taxallusli o'zbek shoiri, Andalib qalamiga mansub bo'lgan masnaviy va muxammasning aslida qissa bilan aloqasi yo'q...” [33].

Qissa so'ngidagi ushbu misralar asarning yozilgan yili haqida guvohlik beradi:

Edi tarix yuz sakson to'quzda,
 Qo'yub ming ustina, shak yo'q bu so'zda.
 Rabiussoni oyi qo'y yilinda,
 Tamom bo'ldi Asiriyning qo'linda.

Demak asar hijriy 1189-yil (mil.1774) da yaratilgan.

Mazkur asar tadqiq etilgan keyingi manbalar, xususan, O.Norimova [68] va S.Yo'ldoshevaning [70] ilmiy ishlarida yuqoridagi fikrlar tasdiqlanadi.

“Sayid Nasimiy” qissasi sujetining qisqaligi, voqealar silsilasining izchil davom etishi, yozuvchi g'oyaviy-falsafiy dunyoqarashining yaxlit va ixcham tarzda ifodalanishi bilan ajralib turadi.

“Sayid Nasimiy” qissasi Nasimiyning hayoti, dunyoqarashi, faoliyati va fojiasiga bag'ishlangan liro-epik asardir. Bu asarda hamd, na't, munajat kabi an'anaviy kirish qismidan so'ng Mansur Xalloy hayoti tasviri bilan asosiy sujet boshlanadi. Qissa shu tarzda davom etib, Mansur vafotidan so'ng bir necha vaqtlar o'tib qayta Nasimiy bo'lib dunyoga keladi. Bu kabi boshlanmaning o'ziga xos mazmuni shundaki, bosh qahramon Nasimiy obrazi Mansur Xalloy shaxsiyatiga muvofiqlashtirilgan. Uningdek adolatsizlik va zulmga qarshi kurashishi, o'z so'zidan voz kechmasligi, shuningdek, dinni pesh qilib xalqni aldab kelayotgan riyokor kimsalarni ham o'ziga tik boqib so'zlashi, ham she'riyati orqali fosh etishi kabi qator o'xshash jihatlarini ko'rsatishga ishoradir.

Asar hozirgi yozuvlarda nashr ettirilmaganligini inobatga olib, uning qisqacha mazmunini O.Norimovning magistrlik dissertatsiyasiga ilova qilingan matn asosida keltirishni joiz topdik.

Qissada bayon qilinishicha, Misr shahrida Mansur ismli bir avliyo yashab o'tgan ekan. Yoshlikdan Ollohning ishqida devona bo'lib, kecha-yu kunduz toat-ibodat qilarkan. Uning Anol ismli mahliqo, sohibkamol singlisi bor ekan. U ham xudoning zikrida bo'lib, kechalari chiltanlar⁵ bilan sharob ichib Olloh yodini qilarkan. Bir kuni ig'vogarlar Mansurga singlisini yomonlab, uning iziga tushishga undaydilar. Mansur Anolning ortidan tog'lar orasidagi chiltanlar makoniga boradi va u yerda haq sharobidan ichadi. Shundan keyin devona bo'lib "Analhaq"- "Men haqman" deb ko'cha-bozor kezadi. Uning so'zini eshitgan mullolar shohga arz qilib dorga osdiradilar. Shunda uni dor bug'maydi, xanjar kesmaydi. Xon esa, toshbo'ron etishni buyuradi. Barcha xaloyiq shoh amri deb u yerdan o'tib tosh-kesaklar otadilar, lekin hech narsa kor qilmaydi. Shu vaqtda bu yerdan Shayx Zunnun o'tib qoladi va unga tosh o'rniga gul otadi. Shunda Mansur oh urib yig'lab yuboradi. Hayron qolgan Shayx Zunnun undan so'raydi: "Odamlar tosh-kesak otdilar indamading, men gul otsam nega dodlab yubordingo?" Mansur unga sening otgan guling odamlarning toshidan ham qattiqroq tegdi, sababi, ular mening ahvolimni bilmas edilar, senga esa mening holim ayon edi, degan javobni beradi. Bunda quyidagi holatga ishora bor:

Mansur so'fiylik tariqatining vakili bo'lib, u qalbiga tasavvuf ta'limotini joylagan, ya'ni Olloh o'zini ma'shuq etish uchun insonni yaratdi. Inson ma'lum bir bosqichlardan o'tib komillikka erishsa, Olloh bilan birlashadi. Mansur ham ana shu holatga erishib o'zligini unutgan. Shu bois

⁵*Chilton*-diniy tasavvurlarga ko'ra g'ayritabiiy kuchga ega bo'lgan afsonaviy qirq ruh. Rivoyatlarda chiltonlar odamlar ko'ziga ko'rinmaydi, ba'zan ular orasida odam qiyofasida yashaydi, deb talqin etiladi. Ular, odatda, mo'ror va shu kabi odamlar bo'lmaydigan joylarda uchraydi, deb tasavvur qilinadi. Turli ofatlardan saqlanish, kasallikdan qutilish maqsadida chiltonlarga atab pilikdan yasalgan qirq chiroq yoqish, ularga bag'ishlab turli taomlar pishirish odati bo'lgan. Taomlar chilton oshi deb atalgan va ular shu marosim munosabati bilan to'plangan xotin-qizlarga tarqatilgan (Islom Ensiklopediyasi. –T.: O'zbekiston milliy e nsiklopediyasi, 2004. 263-bet).

uning “Analhaq” deyishi tabiiy holatdir. Va bu holat-“vahdati vujud” falsafasi tasavvuf soliki boʻlgan Shayx Zunnunga maʼlum edi. Muallif buni bir jumla soʻz bilan ifoda etgandir. Umuman, vahdati vujud taʼlimotining badiiy tasviri koʻpchilik mumtoz adabiyot namunalarida uchraydi. Bu ularning tasavvuf falsafasi bilan sugʻorilganidan dalolatdir.

Asarga rivoyat-afsona epizodi kiritilib, davom ettiriladi. Muallif Mansurni Nasimiya olib borib bogʻlaydi. Orada 5 asrlik vaqt boʻlgani bois buni rivoyat qilishlaricha deb boshlaydi va rivoyat deb eʼtirof etib ikki tarixiy shaxsni bir-biriga tutashtiradi.

Mansur oʻz taqdirini Shayx Zunnunga bayon etib, oʻtda yonib kul boʻlishini aytadi. Vasiyat qiladiki, oʻlganidan soʻng dunyoni suv bosadi, shunda uning kulidan bir hovuch suvga tashlasa, suv orqaga qaytadi va buning evaziga shoh koʻp molu dunyo inʼom qiladi.

Haqiqatdan ham Mansurni oʻtda yoqadilar. Shunda toʻfon turib olamni suv bosadi. Xon buni qaytara olmay jar chorlatadi-kimki suvni orqaga qaytara olsa uni koʻp molu boylik bilan taqdirlaydi. Bundan xabar topgan Shayx Zunnun yetib keladi va Mansurning kulini suvga sepadi. Suv ortiga qaytib, u koʻp inʼom-ehson oladi va yetim yesirlarga tarqatadi. Hamma Mansurni duo qilib, u haqida rivoyatlar toʻqiydi.

Suvga tushgan kul koʻfukka aylanib daryo dara kezib yuradi va bir shohning bogʻiga kirib qoladi. Shohning bir qizi boʻlib u kanizaklari bilan sayrga chiqqan edi. Qarasa, bir koʻfuk ovoz chiqarib aylanayotgan edi. Qoʻlini suvga tiqqan zahoti u qizning ogʻziga kirib ketadi. Malika uyiga qaytgach, koʻngli behuzur boʻladi. Bir muddat vaqt oʻtgach, koʻfuk qornida homilaga aylanadi. Voqeadan xabar topgan onasi otasi bilan maslahatlashadi va ular qizlarini daryoga tashlab yuborishga qaror qiladilar. Xon katta qora sandiq yasattiradi va unga suv va oziqa joylab qizini solib dengizga qoʻyib yuboradi.

Onaning ichiga yutgan dardu alamlarini, ruhiy kechinmalarini ochib berish uchun uning tilidan G`azali Bibixonam sarlavhali she`r keltiriladi.Undan keyin “Munojoti Duxtari” g`azali kiritilgan.Bular qahramonlar ruhiyatini o`ziga xos tarzda muvaffaqiyat bilan ko`rsata olgan.

Sandiq oqib ketib bir qirg`oqqa yaqinlashadi.Uni baliq ovlayotgan baliqchi ko`rib qolib suvdan olib chiqadi. Uyiga olib kelib ochib qarasaki, bir mahliqo va uning yonida husnda Yusufga teng bola yotgan ekan. Baliqchi ularni bu yerdan chiqarib oladi va oilasiga qabul qiladi. Uning ham xotini ko`zi yorib o`g`il farzand ko`radi. Qiz farzandiga Nasab deb ism qo`yadi, baliqchi esa o`glini Amir deb ataydi. Malikani baliqchi o`ziga qiz tutadi.

Nasab yoshligidan majnunsifat bo`lib yuradi. Bir kuni u Amirga o`z taqdirini bayon etib, uning buyrug`i bilan o`lishini aytadi. Amir bunga hayron qolib bu ishni qilmaslikka va`da beradi. Baliqchi bo`lsa kundan kun boyib ketib, badavlat odamga aylanadi.

Nasabning mullosi bir tush ko`radi. Tushida maktab hovlisida bir tup daraxt bo`lib, uning bo`yi chinordek, shoxlari kumushdan, tubi oltindan ekan. Ertasi kuni banogoh bir qalandar maktabga keladi. Mullo undan tushining ta`birini so`raydi. Devona unga maktabda valiy o`g`lon borligini aytadi. Buni bilmoqchi bo`lsangiz maktabdagi har bir bolaga bir jo`jani berib, xudo ko`rmaydigan joyga so`yib keling, deb buyuring, deydi. Shunda kim uni tiriklayin qaytarib olib kelsa o`sha valiydir. Bu maslahatga amal qilib mullo bolalarga o`sha ishni bajarishni vazifa qilib beradi. Hamma har yoqqa tarqalib, birov uy ichida, birov ko`prik tagida, yana birovi boshqa yerda „xudo ko`rmaydigan shu yer“ deb jo`jalarini so`yib keltiradilar. Yolg`iz Nasabgina „xudo ko`rmagan joyni topmadim“ deb jo`jani o`ldirmay olib keladi. So`fiy e`tiqodi bo`yicha, Olloh har narsani bilguvchi, ko`rib turguvchi zotdir. Nasab ham so`fiylik sulukining soliki bo`lgani uchun muallif uni shu xususiyat-solikka xos e`tiqod va qarashlar bilan boyitgan. Mullo Nasabni

valiy deb gumon qiladi. Uni yana sinamoqchi bo`lib, har bir bolaga o`tin yig`ishtirishni buyuradi. Juftlangan o`tinlarni olovsiz yoqing, deydi. Hech kim buni uddalay olmaydi. Nasab esa o`tinini balchiqga bulg`ab olib keladi va „puf-puf“lab olov oldiradi. Shunda mullosi uning oldida tiz cho`kib kechirim so`raydi. Nasabning bu holati ayon bo`lib qolgach, maktabni tashlab ketishga qaror qiladi. Shundan keyin u “sizga uy qutli, bizga yo`l” deb darveshona hayotini boshlab yuboradi. Cho`l-u biyobon, dasht-u sahro kezib hayvonlar bilan hamroh bo`lib yuradi. Uning bu holati Majnun hayoti kabi edi. Shu bois Majnunning devonavor hayotini aks ettirgan “Layli va Majnun”dostonidagi bir parcha bu qissaga ham kiritilgan:

Gohi kelib o`zina gohi majnub,
Gohi alfozi kufr aylab gohi hub.

Necha yillar bo`lib cho`llar makoni,
Chun Majnun vahshiylar birla ravoni.

Debon ul shahsuvori qoba qavsayn,
O`qudi bu g`azalni gavhari ayn.

Shundan keyin Mashrab kabi ikki dunyoni ko`ngliga joylab, o`zi esa, keng jahonga sig`may necha yurtlar kezadi. Unga yo`lda ikki qalandar qo`shilib hamroh bo`ladi. Uchovlon bir shaharda pirga yo`liqadilar. Bu pir Nasimiy<sup>6</sup>ning valiy ekanligini ayon qilgan devona edi. U uchoviga olma va non sovg`a qiladi. Va bu yerdan tezroq ketishlarini uqtiradi. Bu sirning sababini bilmagan ikki qalandar Nasimiydan yechimini so`raydi. Nasimiy esa, ularni kelajakda nimalar kutayotganini aytib, taqdiridan xabar beradi.

⁶Shundan boshlab Nasab emas, Nasimiy deb yuritiladi. Ustozi uning valiyligidan xabar topgach, Nasimiy deb ot qo`yadi.

Nasimiy cho`l-u biyobonlarni kezib yurgan zamonda Amir kal o`tin terib, bozorga sotib, onasi bilan kun kechirar edi. Otasi o`lib yetimlikning achchiq azobini tortayotgan bu o`tinching boshiga baxt qushi qo`nadi. Bag`dod xoni o`lib taxti bo`sh qoladi. An`anaga ko`ra, davlat qushi uchirilib kimning boshiga qo`nsa, o`shani xon saylamoqchi bo`ladilar. Ana shu paytda Amir kal eshagiga o`tin ortib ketayotgan edi. Davlat qushi uning boshiga qo`nadi. Beklar bu qushning fe`li ozdi, deb qayta uchiradilar. Qarashsalar, yana o`sha kalning boshiga qo`nib turibdi. Bu taqdiri azal ekanda, deb uni xon ko`taradilar.

Shu zamonda Nasimiy Xalab shahriga kelib qoladi. U bu yerda xalqqa qarata ko`p g`azallar o`qiydi va mullolarga “tishoq, ichi qora mullolar”, “juma kuni kun degil, mullo musulmon degil” degan so`zlarni aytadi. Bu so`zlarni eshitib mullolar xonga arz qiladilar. Podshoh hukmi bilan uni dorga osadilar, lekin o`lmaydi. Mullo, mufti, qozi yana xonga arz qilib boradilar. Shoh uning terisini so`yib ichiga somon tiqishni buyuradi. So`ymoqchi bo`ladilar, pichoq kor etmaydi. Nasimiyning o`zi yo`l ko`rsatib, tovonidan so`ysa oson bo`lishini aytadi. Shoh buyurganidek, terisini shilib ichiga somon tiqib, darvozaga osadilar. Amir kal ya`ni shoh shu darvozadan chiqib shikorga ketadi, lekin Nasimiyni ko`rmaydi. Ov qilish tugagach, shoh beklari bilan saroyga qaytadi. Darvozaga yaqin kelgach, ko`zi og`asiga tushadi. Teri tilga kirib ta`na qiladi: “Qani onting, qani sharting, qani ahding vafosi”. Amir dod-faryod qilib, uni saroyga olib borib, shohona urf-odat bilan dafn etadi. Bunda Amir kal tilidan marsiya mazmunidagi “Ayrilmasun” radifli musaddas keltiriladi.

Shoh og`asining o`chini olmoq uchun mullolarni “ziyofat”ga chaqiradi. Barchalari avvaldan bu shohning in`om-ehsonnini olib yurgani uchun saroyga tezda yetib keladilar. Xon odamlariga ularni suv tegirmonidan o`tkazishni buyuradi. Mullolar qonidan tegirmon aylanib bug`doy un

bo`ladi. Bir mullo cho`loq bo`lib olisdan kelar edi. Yo`lda bu voqeadan xabar topib ortiga qaytadi. Necha yillar yashirib yotgach yer yuziga chiqadi. Naql borki, barcha mullolar shu mullodan tarqalgan. Asar so`ngida xotima keltirilib, Asiriy taxallusli shoir ushbu yoziqni tugatayotganligini ayon etadi.

Nasimiyning obrazida bir qancha tarixiy shaxslar, tipik qahramonlar va boshqa badiiy asarlardagi obrazlarga xos xususiyatlar namoyon bo`ladi. Umuman olganda, qissadagi Nasimiy obrazini avvalidan oxirigacha boshqa asarlardagi badiiy timsollar, hayotiy qahramonlar bilan qiyoslash mumkin. Masalan, uning tug`ilishi bilan bog`liq oddiy bir holatni olsak, Iso Masih onasi kabi Nasimiyning onasi ham xudoning qudrati bilan farzandini otasiz dunyoga keltiradi. Bu esa, mana shu epizod aynan Iso haqidagi tasavvurlarga asoslanganini ko`rsatadi.

Nasimiy obrazidagi xususiyatlarni Mashrab bilan ko`p tomonlama muqoyasa qilish mumkin. Nasimiy Mashrabdan oldin yashab o`tgan bo`lsa-da, aynan Mashrabdagi xislatlar Nasimiyga ko`chirilgandir. Darhaqiqat, Sayid Nasimiy haqida qissa yaratilayotganda Shoh Mashrab qissasi xalq orasida keng yoyilgan edi.

“Shoh Mashrab”, “Qissayi Mashrab”, “Devoni Mashrab” kabi nomlar bilan mashhur bo`lgan xalq qissasi adabiyotshunoslikda anchadan beri ma`lum va mashhur. O`zbek adabiyotshunosligida Abdurauf Fitrat va S.Ayniydan boshlangan mashrabshunoslik XX asrda bir qator yutuqlarga erishdi. Xususan, V.Abdullayev [5], G'.G'ulom [43], A.Abdug'afurov [6], A.Haitmetov [44], M.Zokirov [13], J.Yusupov [38], E.Shodiyev [37] kabilarning ilmiy ishlarini qayd etib o'tish joiz. Bu borada Samarqand olimlarining xizmati, ayniqsa, e'tiborga molik. E.Musurmonovning 1995-yilda Samarqandda yoqlangan “Rahimbobo Mashrab va uning badiiy adabiyotdagi talqini” mavzusidagi hamda takror tilga olinayotgan Y.Saodatning 2011-yilda Samarqandda yoqlangan “Badiiy-biografik qissalar

poetikasi (“Qissai Ibrohim Adham”, “Qissai Sayid Nasimiy”, “Qissai Mashrab” asarlari asosida) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyalari mashrabshunoslik sohasidagi jiddiy yutuqlardir. Shularni inobatga olgan holda, biz asarning o’zi haqida batafsil to’xtalishni lozim topmadik. Quyoda “Sayid Nasimiy” va “Qissayi Shoh Mashrab” asarlarining mushtarak jihatlari haqida, tadqiqotlarda nazardan chetda qolgan ba’zio’rinlarini qayd etib o’tmoqchimiz.

Insoniyat tarixida buyiklikka daxldor ko’plab zotlar yashab o’tgan. Ularning ayrimlari muayyan ma’naviy silsila namoyondalari, o’xshash qismat egalari bo’lganligi bilan ham o’chmas iz qoldirgan. Mansuri Xalloy, Sayid Nasimiy, Boborahim Mashrab kabi mutafakkir ijodkor va hurfikir shaxslar ham shunday oltin silsilalardandir. Bularning qay biri nomini tilga olmaylik, albatta qolganlarining shaxsiyati shu onda ko’z o’ngimizda namoyon bo’ladi. “Manga sig’ar ikki jahon, man bu jahonga sig’masam” kabi mazmundagi jumlalarning har uchchala mutafakkir ijodida jaranglashi, ayniqsa, Nasimiy bilan Mashrabning bu olamda birday nafas olganini tasdiqlaydi. Shundan bol’sa kerak, ularning adabiyotda yaratilgan badiiy timsollari ham bir qator mushtarak xususiyatlarga ega. Shu ma’noda “Sayid Nasimiy” va “Shoh Mashrab” qissalari g’oyaviy-badiiy va kompozitsion xususiyatlari bilan uyg’undir. Sujet nuqtai nazaridan har ikkala asar ham xalq kitoblari sirasiga kiradi. Biroq she’riy usulda aruz vaznida yozilgan „Sayid Nasimiy“ qissasi Asiriy qalamiga mansub bo’lsa, nasr usulida yaratilgan „Shoh Mashrab“ qissasining musannifi ma’lum emas. Ammo bu qissaning ham yozma variantlari ma’lum bir kotib tomonidan yaratilgan. Bu asarlarda Nasimiy va Mashrabning bir-biriga o’xshash jihatlari tasvir etilgan. Qolaversa, “Shoh Mashrab” qissasini ham ma’lum bir kotib-ijodkor yaratgandir. Shu bilan birga, har ikkala asarda ham shakliy muvofiqlik, g’oyaviy-badiiy uyg’unlik tomonlari namoyon bo’ladi.

Bir davrning adabiy mahsuli boʻlgan bu ikki asarning oʻxshash xususiyatlar kasb etishi tabiiy holatdir. Qolaversa, Sayid Nasimiy ham Boborahim Mashrab ham umri davomida toʻlaligicha Mansur Xalloyga izdoshlik ruhida yashaganlar. Shu sababli ham hayotning inʼikosi boʻlgan badiiy adabiyotdagi timsollari mushtarak xususiyatlarni vujudga keltirgan. Asarlar kompozitsiyasidagi yana koʻplab oʻxshash jihatlarni bu qissalarning bir davrda yaratilgani bilan izohlash mumkin. Zero, Nasimiy va Mashrab kabi zotlar adabiyot sarchashmalari xazinasini boyitgan boʻlsa, oʻz navbatida soʻz sanʼati-adabiyot tufayli ularning nomi barhayotdir.

Tadqiqotning birinchi bobi davomida oʻrganilgan masalalar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

XVIII - XIX asrlar oʻzbek adabiyoti tarixining ajralmas tarkibiy qismlaridan boʻlmish xalq kitoblari, xalq qissalari va shu uslubda yozilgan asarlar adabiy manba boʻlish barobarida xalqning tafakkuri, maʼnaviy-axloqiy qadriyatlari, urf-odatlarini voqelikni badiiy idrok etish darajasi, oʻtmish ajdodlarga munosabati haqida maʼlumot beruvchi qimmatli manbalar sanaladi.

Xalq qissalari orasida tarixiy shaxslar, xususan, ijod ahli timsollari ishtirok etadigan asarlar ham talaygina. Xususan, Alisher Navoiy, Abdurahmin Jomiy, Sayid Nasimiy, Boborahim Mashrab singari ajoyib soʻz ustalari, mutafakkir shoirlarning badiiy timsollari yaratilgan qissalar shular jumlasidandir. Ularda mashhur tarixiy shaxslar baʼzan asosiy, baʼzan epizodik obraz sifatida ishtirok etadi.

Shunday asarlardan biri XVIII-XIX asrlarda fors-tojik va oʻzbek tillarida koʻplab qoʻlyozma nusxalarda tarqalgan "Mirzo Hamdam" qissasidir. Oʻziga xos mazmun va gʻoyalar tizimiga ega boʻlgan mazkur qissa oʻzbek va tojik adabiyoti tarixida muhim oʻrin egallaydi. Asarning yaratilish

asoslari va jarayoni, mazmun va o'oyasi, undagi obrazlarning ramziy-majoziy mohiyati haqida uzil-kesil xulosa chiqarish hozircha mushkul. Buning uchun, uning nusxalarini qiyosan tadqiq etish lozim bo'ladi.

Adabiyotshunos Q.Tohirovning ta'kidlashlaricha Markaziy osiyoda yashovchi turkiy xalqlar orasida Ijodkor shaxslar hayotidan hikoya qiluvchi, tarixiylik va badiiylik qorishib ketgan qissalar juda ko'p. Bular orasida Sayid Nasimiy va Boborahim Mashrab haqidagi qissalar alohida mavqega ega. Oxshash qismat va umumiy dunyoqarashga ega bo'lgan Sharqning bu ikki mutafakkir shoira haqida bitilgan qissalar garchand ikki xil usulda (biri she'riy usulda, aruz vaznida; ikkinchisi asosan nasrda) yozilgan bo'lsa-da bir qator mushtarak jihatlarga ega. Har ikkala qissada ham tarixiy shaxslarning badiiy timsollari yaratilgan bo'lib, tarixiylik va badiiylik tamoyillari qorishib ketgan.

Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Sayid Nasimiy va Boborahim Mashrab kabi ijodkor shaxslarning badiiy timsollari ular yaratgan adabiy meros mohiyati va xususiyatlari bilan birga, oddiy xalq yoxud uning alohida iqtidor egalari tomonidan ushbu adabiy merosning idrok etilishi darajasi, qissaxon va qissanavislarning ijodiy mahoratiga muvofiq yaratilgan. Ularda ba'zan sayyor – asardan-asarga ko'chuvchi epizodlarning mavjud bo'lishi, muayyan she'r va baytlarning o'ziga xos voqeiy talqinlari yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi. Qolaversa mazkur masalalar magistrlik ishining uchinchi bobida atroflicha tadqiq va tahlil etiladi.

II. BOB. XALQ QISSALARIDA DIN VA TASAVVUF NAMOIYANDALARINING BADIY TIMSOLLARI.

2.1. Diniy-didaktik qissalar va ularda Hazrat Ali timsoli.

Yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, XVIII - XIX asrlar o'zbek adabiyoti tarixining ajralmas tarkibiy qismlaridan bo'lmish xalq kitoblari, xalq qissalari mavzu, mazmun va janriy xususiyatlariga ko'ra rang-barangdir. Adabiyotshunos Q. Tohirov qissalarni o'rganar ekan, ularni mavzu nuqtai nazaridan bir necha turlarga ajratadi: ishqiy – saguzasht qissalar; tarixiy qissalar; badiiy – biografik qissalar; qahramonlik, vatanparvarlik mavzisidagi qissalar; diniy – didaktik qissalar. Shulardan, diniy – didaktik qissalarga olim “Ibrhim Adham”, “Bobo Ravshan”, “Sa'd Vaqqos”, “Qahramoni Qotil”, “Muhammad Hanifa va Zufunun, “Qissai Umar bo bevazan”, “Qissayi Hasan va Husan” kabi qator qissalarni kiritadi [31 .75].

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati tarixida muhim o'rin egallagan qissalar, xalq kitoblari orasida diniy-didaktik qissalar alohida o'ringa ega. Islom madaniyatining ilk davrlaridan boshlab din va tasavvuf vakillari, valiy zotlar haqida xalq orasida turli-tuman rivoyatlar va qissalar yoyila boshlagan. Ular bir tomondan, shariat va islom ma'rifatining targ'iboti uchun xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan mazkur aqidalarning mahalliy aholi madaniyati, mafkurasiga moslashishi jarayonining mahsuli hisoblanadi. Zero ularda ifodalangan voqelik, targ'ib etiladigan g'oyalar doimo ham rasmiy islom mafkurasiga, aqidalariga mos kelavermaydi.

Diniy-didaktik qissalar adabiyotshunoslikda asosan istiqloldan keyin keng miqyosda o'rganila boshlandi. Ularning bir qator namunalarini nashr ettirildi. Biroq mazkur qissalarning alohida adabiy hodisasifatida janriy va poetik xususiyatlari atroflicha tadqiq etilgan deb bo'lmaydi.

Diniy-didaktik qissalarda Muhammad (a.s.), Ul zotning yaqinlari (Bibi Fotima, Hazrat Ali, Imom Hasan, Imom Husayn) va mashhur sahobalar (Sa'd Vaqqos, Amir Hamza) ning hayoti, faoliyati badiiy suratlarda aks ettiriladi. Bu kabi qissalarga o'zbek, tojik, turkman, ozorbayjon xalqlari orasida mashhur bo'lgan "Zaynularab", "Zufunun", "Qissai Zarqum", "Jangnomai Hazrat Ali", "Amir Hamza", "Bobo Ravshan", "Shahzoda Hasan", "Shahzoda Husayn", "Sa'd Vaqqos", "Muhammad Hanifa" kabi asarlar, ularning turli variant va versiyalarini kiritish mumkin. Bunday qissalarda eng ko'p ishtirok etadigan timsol Hazrat Ali timsolidir. Go'ro'g'li turkumidagi dostonlarda bo'lgani kabi Hazrat Ali (r.a.) timsollari ko'plab syujetlarni bog'lab turuvchi markaziy timsol vazifasini bajaradi.

Markaziy Osiyo va Eron xalqlari madaniyatida Hazrat Ali shaxsiyati muhim ahamiyat kasb etgan bo'lib, unga turlicha munosabat bildiriladi. Bu haqda maxsus tadqiqot olib brogan tojik adabiyotshunos, folklorshunos olimi Shamsulhaq Oriyonfar o'zining "Forsiyzabon folklorda Hazrat Ali timsoli" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida atroflicha ma'lumot beradi. Olim O'zbekiston va Tojikiston hududida yashovchi tojikzabon xalqlar og'zaki ijodida Hazrat Ali shaxsiyati bilan bog'liq bo'lgan og'zaki ijod namunalari, xususan, qo'shiq, afsona, rivoyat va qissalar tahlili asosida Hazrat Ali qatnashadigan o'gzaki ijod namunalari xalqning turmush tarzi, asar yaratilgan tarixiy sharoit bilan chambarchas bog'langanligi, ularda Hazrat Ali timsoli tarixiy haqiqatdan kesib olinib ertak qahramonlariga yaqinlashtirilganligini qayd etadi [66 . 22]. Mazkur xususiyatlar qisman xalq qissalariga ham xosdir.

Ali ibn Abu Tolib islom olamining mashhur va mo''tabar siymolaridan biridirlar. U kishining hayotlari, ko'rgan kechirganlari, din yo'lidagi faoliyatlari islom dini tarixida nihoyatda yuksak mavqega egadir. Payg'ambar Muhammad Mustafu salallohu alayhi vasallamning kuyovlari,

amakiyachchalari Hazrati Ali (r.a) milodning 601 yilida dunyoga keldilar. Ota-onalari bag`rida sakkiz yoshga qadar (ba`zi rivoyatlarda to`qqiz yoshga qadar) tarbiya topadilar. To`qqiz yoshga yetgan paytlarida Rasululloh Hazratlari Ali ibn Abu Tolibni o`z tarbiyalariga oladilar. Hazrati Ali (r.a) musulmon olamidagi to`rt xalifaning uchtasi hisoblangan Hazrati Abobakri Siddiq, Hazrati Umar, Hazrati Usmonlardan keyingi to`rtinchi xalifa deb yuritilgan eng mo`tabar shaxslardan biridir [14].

Hazrati Ali(r.a) ijod bilan ham shug`ullangan. Uning bizgacha nutqlari, hikmatli so`zlari va she`riy devoni yetib kelgan. Bularning ichida ayniqsa, she`riy devoni ahamiyatga molik bo`lib, unda ijodkor o`zining ilmiy va islomiy g`oyalarini ifoda etgan. Tarixdan malumki, devondagi she`rlardan ham ko`rish mumkin, Hazrati Ali(r.a) o`ta fazilatli inson bo`lgan. U insonparvar, xalqparvar, taqvodor, boadab kishilardan biri edi. Shuningdek, chin islomiy g`oyalarning targ`ibotchisi tug`ma iste`dod va qobiliyat egasi bo`lgan. U o`ta zukko, donishmand, zehnli, kishilarning dillaridagi yashirin sirlarni ham anglab yetish darajasida fahm-farosatli inson edilar. Hazrati Ali (r.a)ning bu fazilatlari, yoshligidan Qur`oni karim islomiy muhit ta`sirida o`sganligi, Payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v) o`gitlaridan bahramand bo`lganligi uning ilm egasi bo`lib yetishishiga imkon yaratdi. Hazrati Ali (r.a) ilmning qadri balandligini chuqur anglagan shaxs. Shuning uchun hamma she`rlarida ilm va uning fazilatlari haqida so`z yuritadi, shu bilan birga o`z ilmiy qarashlarini ifodalaydi.

Rasululloh (s.a.v) bir hadislarida “Men ilm shahriman, Ali esa uning darvozasidir” deb, Hazrati Ali (r.a) ning ilmiga baho bergan edilar. Haqiqatan ham Hazrati Ali (r.a) islom davri ilmining boshlanishi, Payg`ambarimiz ta`biri bilan aytganda, “ilm shahrining darvozasi” bo`la oldi.

Hazrati Ali haqida Fariduddin Attor o`zlarining “Mantiq ut-tayr” asarlarida shunday yozganlar “Haqiqat xojasi (egasi), rostlik peshvosi,

ilmning koni, hilm (yumshoqlik)ning dengizi va din qutbi. Kavsar havzi soqiysi, yo`l ko`rsatuvchi imom, Mustafo ilmining vorisi, Xudoning sheri. Murtazoyu Mujtabo, Ahli Baytdan – Fotimaning jufti haloli, ma’sumlik xojasi va Rasulning kuyovi. Rahbarlikni bayon etuvchi sirining egasi edi. U din peshvoligiga sazovordir. U har qanday masala–muammo va bandlar, mushkullarni yechuvchi mutlaq muftiydir”. Fariduddin Attor Hazrat Alini boshqa xalifalarga qarshi qo’yadigan turli mazhab va oqimlarga qarshi keskin fikr bildiradi. Ikkita kichik hikoya orqali Hazrat Alining hatto dushmaniga nisbatan ham o’ta shafqatli bo’lganini ko’rsatadi: “Abubakr Siddiqqa Ali kabi bir do’stni Xudoyi taolo boshqa yaratmaydi. Nega buncha Murtazo (Ali) zulm ko’rgan (mazlum) edi, xalifalikdan badarg’a qilingan edi deb javraysan? Ali Haqning sheri va boshlardagi tojdir. Sherga kim ham zulm qila olardi, ey o’g’il” [61. 32].

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida ham barcha xalifalar qatori Hazrat Ali haqida ham alohida bob bor. Unda, jumladan, quyidagi ta’riflarni o’qiymiz:

Ilmdaryosivaloyatgavhari,
Olamahlidaajoyibmazhari.

Anbiyosarxaylig’afarzandul,
Xayli odam ichra bemonand ul..

Ilm shahri anbiyog’a intiho,
Vasfida aytib Aliyun bobaho.

Alisher Navoiy ham Hazrat Ali haqidagi rivoyatlardan birini keltiradi. Unda Ali (r.a.) mukammal ibodat egasi ekanligi ta’riflanadi:

Bir g`azoda naql mundoqdurki shoh,
Ebdur o`q zahmiki otmish kiynaxoh...

Chun Nabig`a arz etibdurlar oni,
Bo`yla debtor ul hidoyat maxzani.

Kim ul etgon chog`da ahromi namoz,
Oni tortarg`a bo`linguz chorasoz.

Oncha istig`roqdindur bahravar,
Kim ul ishtin bo`lg`usidur bexabar.

O`ylakim hukm etti ul sham`i xudo,
Qildilar ul ishti fath etti xudo.

Shah namozining salomin chun dedi,
Zaxmda ne dardu ne paykon edi... [48. 18].

Ta`kidlab o`tganimizdek Hazrati Ali (r.a) she`riyat, aniqrog`i, islom she`riyatining asischilaridan bo`lib, bu haqda Alisher Navoiyning umrlari oxirida yozilgan “Mahbub ul-qulub” asari “Nazm gulistonining xushovoz qushlari tog`risida”gi faslida shunday deyiladi: “Ular (shoiralar) bir necha guruhdir. Birinchi guruhi-ilohiy ma`rifat xazinasini javohirlari bilan boyigan va xalqning ta`rifiga ehtiyoj sezmaganlar bo`lib, qiladigan ishlari ma`nolar xazinasidan javohirlar yig`moq va u javohirlarni el ezguligi uchun nazm ipiga termoqlikdir. Nazmlarining ifodasi nihoyatda qutlug`, g`oyat yoqimli va ulug`dir. Istagan odam bularning she`rlaridan so`z mo`jizalarini topa

oladi. Bularning nazmlari shunday tabarruk kalomlarki, hurmat yuzasidan ularni she'r deyishga ham elning tili bormaydi.

Mana shu aziz va sharofatli zotlar guruhining eng ulug' peshvosi, eng birinchisi, eng sarasi, valiylik dengizining gavhari va karomat peshalarning eng yuksak yulduzi-mo'minlarning amiri Alidirlarkim, Haq u kishidan rozi bo'lsin va yuzlarini yorug' qilsin. U kishining she'riy devonlari bor bo'lib, unga yashiringan sir ma'nolarning chegarasi yo'qdir" [49]. Bu ta'rifidan ko'rinadiki, Alisher Navoiy Hazrat Ali (r.a) she'riyatidan yaxshi xabardor bo'lgan. Haqiqatan, Hazrat Ali (r.a) she'rlarini o'qisak, uning "ilohiy ma'rifat xazinasini javohirlari bilan boyiganligining, ma'nolar xazinasidan javohirlar yig'ib, u javohirlarni el ezguligi uchun nazm ipiga terganligini", "nazmlarining ifodasi nihoyatda qutlug', g'oyat yoqimli va ulug'" ekanligini, "istagan odam uning she'rlaridan so'z mo'jizalarini topa olishini" ko'rishimiz mumkin [30]. Hazrat Ali (r.a) ning she'riyat uchun qilgan katta xizmati uning g'oyaviy inqilobini amalga oshirilganidir. Bu borada uning she'larida avvalo, inson ulug'lanadi, undagi qobiliyat va fazilatlarga, inson aqliga yuksak baho beriladi, insonni ilm egallashga chaqiradi. Hazrat Ali (r.a) chin do'stlik va birodarlikni maqtaydi. Umuman olganda, Hazrat Ali (r.a) barcha hayotiy masalalarni islomiy nuqtai nazaridan yoritib beradi va o'z fikrlarini bildiradi. Hazrat Ali (r.a) islomiy g'oyalar o'z aksini topgan she'riyati bilan islom she'riyatiga asos soldi va islom she'riyatining asoschisi bo'ldi. Alisher Navoiy ta'kidlaganidek Hazrat Ali she'rlari va shu uslubda yozilgan asarlar (xususan Ahmad Yassaviy hikmatlari)ga nisbatan "she'r" atamasi emas "hikmat" atamasini qo'llash joiz.

"Hikmat" so'zi odatda Qur'oni karim oyatlarida payg'ambarimizning haq yo'lni ko'rsatuvchi va'zlari ma'nosida qo'llanilgan. Lug'atlarda esa, unga ilm va adolat birligini ko'zda tutuvchi haqiqatlarning ma'rifati; odat va ahloqqa oid maxsus so'z; insonning haqiqatni bilib xayrli ishlar qilmog'i;

sirli, yashirin sabab; narsaning ich va tashi (surati va siyrati) holidan bahs etuvchi ilm; aql va harakatlardagi uyg'unlik; Tangri haqiqatini ifoda etgan diniy-tasavvufiy xos soʻz tarzida taʼriflar beriladi. Qisqacha qilib aytganda, hikmat“diniy- tassavvufiy yoʻnalishga ega maʼnodor soʻz” dir. Hikmatlar X asrdan buyon tasavvufga doir kitoblarda ishlatilib kelingan [44. 105].

Hazrati Ali (r.a) ijodining taʼsiri oʻzbek mumtoz adaboyotida ham sezilarli. Jumladan, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” dostonida arab tilidagi nasriy matnlar mavjud boʻlib ular Qurʼon oyatlari, hadislar yoxud hikmatli soʻzlardir. Bular orasida Hazrat Ali hikmatlaridan olingan iqtiboslar ham bor. Masalan:

"Jarahatus sihami lahat tiyamu va la yalsamu ma jarahallisani"
[21. 221].

Bu matn ikkita manbada ikki xil tarjima qilingan

Aqldan ozish, til jarohati va uni tiyish haqida [21. 236].

Oʻq yarasi, aqldan ozish, til jarohati va uni tiyish haqida [36. 125].

Ustozimiz S.Tohirovning taʼkidlashlaricha: “Tarjimada "la yalsamu" (tuzalmaydi, bitmaydi) soʻzining maʼnosi tushib qolganligi uchun noaniqlik yuzaga kelgan” [34. 30], “Bu tarjimada "aqldan ozish" iborasi qanday kirib qolganligini tushunish qiyin. Vaholonki, matnning toʻgʻri tarjimasi:

Oʻq bilan etkazilgan jarohat bitib ketadi, biroq til bilan etkazilgan jarohat bitmaydi” [34. 21].

Mazkur hikmat bir qator manbalarda, shoir va mutafakkirlarning asarlarida, baʼzan ayrim oʻzgarishlar bilan tilga ilinadi. “Sharhi qavoidi aʼrob” kitobida bu jumla Hazrat Alining hikmatlaridan biri sifatida keltirilgan:

Jarahat as-sinani laha-ttiyamu va la yalsamu ma jarahal lisani.

“Hibat ul- haqoyiq”dagi matn bilan qiyoslaganda, birgina farq kuzatiladi. Unda “o`q” ma’nosini bildiruvchi “**as-siham**”so’zi qo’llangan bo’lsa, bu matnda “tig`” ma’nosini bildiruvchi “**as-sinan**”so’zi qo’llangan.

Ushbu matndan oldin quyidagi misralar o’rin olgan:

O’chukturma erni tilin bil bu til,

Bashaq tursa butmas, butar o’q bashi [21. 221].

Baytning tabdili quyidagicha: Kishini o’chakishtirma (o’chashtirma, uning) tilini bil, bu til yaralasa, tuzalmaydi, o’q jarohati esa bitib ketadi [21. 235]. Boshqa manbada esa "yaralasa" so’zi majhul nisbatda "yaralansa" tarzida ham kelgan [41. 125].

S.Tohirovning yuqorida tilga olingan kitoblarida ta’kidlanishicha, “...misralarda ikkita (imlo va tinish belgilarida) xato borligi hamda "tilin" so’zidagi -in qo’shimchasini tushum kelishigi shakli deb tushunish natijasida sharhda nuqson yuzaga kelgan. -In qo’shimchasi bu o’rinda vosita kelishigi vazifasida bo’lib, "**til bilan**" degan ma’noni hosil qilgan. Baytning to’g’ri sharhi, bizningcha, quyidagicha:

Inson(lar)ni til bilan o’chakishtirma, shuni bilginki, bu til yaralasa (bashaqtursa) tuzalmaydi, o’qning yarasi esa bitib ketadi [34. 31].

Demak Ahmad Yugnakiy Hazrat Ali hikmatlari mazmunini she’riy yo’l bilan sharhlagan.

Alisher Navoiyning “Nazm-ul javohir” asarida ham Ali (r.a) ning mazmunan shunga hamohang bo’lgan hikmatlari mavjud:

Zarb ul-lisani ashshaddu min ta’n us-sinani.

(Tilning zarbi tig’ning zarbidan ko’ra shiddatliroqdir).

Hazrat Navoiy bu hikmatni quyidagicha sharhlaydilar:

Chun sinsa ko`ngul zaxmi zabon og`rig`idin,

Kam, ermas aning og`rig`i jon og`rig`idin,

Har neki sanga etar lison og`rig`idin,

Bilgilki, qatig`durur sinon og`rig`idin [50. 160].

Yuqoridagi aytilganlardan xulosa chiqargan holda “Hibat ul-haqoyiq” dostoni tarkibidagi bu jumla Hazrat Ali (r.a) hikmatlaridan olinganligini qayd etish mumkin.

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi karam va saxovatga bag`ishlangan beshinchi maqoloti quyidagi baytlar bilan yakunlanadi:

Ulki karam durrig`a daryo edi,
 Bahr aning durrida paydo edi,
 G`azvda neruyi yadulloh anga,
 Xalq laqab aylab Asadulloh anga.

Dostonning nasriy bayonlarida maqilatdagi mazkur so`nggi ikki bayt tushirib qoldirilgan [47. 310]. “Sobiq ittifoq davridagi nashrlarda buning sababini izohlash mumkin, zero unda Muhammad payg`ambarning amakivachchalari va kuyovlari, to`rtinchi xalifa hazrati Ali ta`riflangan” [35]. Shu o`rinda eslab o`tish joizki, S.Tohirovning ilmiy maqolalarida ta`kidlanishicha “So`nggi baytdagi “xalq” so`zi vazn talabiga javob bermaydi. Chunki, mazkur soz ikki undosh bilan tugaydigan o`ta cho`ziq hijoga teng, aruz tili bilan aytganda bir harakatli va ikki sokin harfdan iborat bo`lib, uni bita cho`ziq hijoga joylashtirishning sira iloji yo`q. “Xamsa”ning toshbosma nusxaslarida so`nggi baytning ikkinchi misrasi “Haq laqab aylab Asadulloh anga”deb yozilgan. Ma`lum bo`ladiki, asl matndagi “Haq” so`zi bo`lib yoki bilmay “xalq” (yaratilmish, insonlar) so`ziga almashtirilgan. Natijada, Hazrat Aliga tegishli bo`lgan “Asadulloh”, ya`ni “Allohning sheri” laqabi odamlar tomonidan qo`yilgan, degan noto`g`ri fikr kelib chiqadi. Aslida esa Navoiy bu laqab Tangrining o`zi tomonidan qo`yilganligini ta`kidlamoqda” [35].

Alisher Navoiyning yuqorida tilga olingan “Nazm ul-javohir” (“Ipga tizilga javohirlar”) nomli didaktik va axloqiy mavzulardagi ruboiylaridan

tarkib topgan asarining yozilishiga sabab bo'lgan manba Hazrat Alining “Nasr ul-laomiy” (“Sochma la’lu-marvarid, qimmatbaho toshlar”) nomli hikmatli soʻzlar toʻplamidir. Alisher Navoiy “Nasr ul-laomiy”dagi hikmatli soʻzlarni oʻzbek tiliga ruboiy tarzida oʻgiradi. Asarda avval hazrati Alining arab tilidagi hikmatli soʻzi keltiradi soʻng esa uning Alisher Navoiy tomonidan amalga oshirilgan sharhi beriladi. Masalan:

Hazrati Ali hikmati:

Majlis ul-ilmi ravzat ul-jannati.

Tarjimasi: Ilm majlisi-jannat bogʻiga oʻxshaydi.

Alisher Navoiy ruboiysi:

Kim olim esa nuqtada barhaq de oni,
Gar bazm tuzar behishti mutlaq de oni,
Har kimsaki, yoʻq ilm anga ahmaq de oni,
Majlisdagi ilm boʻlsa uchmaq de oni.

Hazrati Alining hayoti ijodi, koʻrgan kechirganlari, yurish turish va feʼl-atvorlari haqida juda koʻp ilmiy, tarixiy va badiiy asarlar ham yaratilgan. Hazrati Alining islom olamidagi pahlavonligi, botirligi, mardligi va tadbirkorligi jang-u jadallarda qoʻlga kiritgan zafarlari alohida diqqatga molikdir. Diniy kitoblarda bu kishining “Asadulloh”, yani Xudoning sheri deb taʼkidlanishi ham bejiz emas. Shu bois ham bu buyuk insonning din yoʻlida olib borgan kurashlari dunyo musulmonlari tilida doston boʻlib kelgan.

Maʼlumki, har qanday dinga mansub millat oʻz dinnini yoygan, bu din uchun ayovsiz kurash olib borgan alohida shaxslarning qahramonliklarini, zafarlarini, yurishlarini koʻklarga koʻtarib maqtagan, taʼrif-u tasnif etgan. Xalq ideal fazilatlarini oʻzida mujassamlashtirilgan qahramon timsolida muqaddas gʻoyalarni tarranum etgan. Tarixiy haqiqatni badiiy toʻqima bilan uygʻunlashtirib qiziqarli sujetli asarlarni maydonga keltirgan. Bu

xususiyatlarni o'zbek mumtoz adabiyotidan munosib o'rin egallagan xalq kitoblarida ham ko'rish mumkin. Bunday asarlar odatda jangnoma xarakterida bo'ladi.

Hazrati Alining nomlari ajdodlarimiz tomonidan din homiysi, adolat va raiyat qahramoni, botirlik va mardlik timsoli sifatida e'zozlanib, kuylanib kelingan. Jangnoma qissalarda jang-jadallar, tarixiy yoki afsonaviy urushlar va bu urushlarda yakka shaxsning yoki lashkarning ko'rsatgan jasoratlari, hiyla nayrang, tadbirkorliklari tasvirlangan. Biz qissa degan tushunchaning o'zida haqiqat va ideal tarix birlashib, chatishib ketgan olamshumul voqealarni tasvirlangan, xalqimizning axloqiy, falsafiy, diniy qarashlarini, hayoti, urf odatlarini qomusiy bir tarzda ifodalangan o'tmish yodnomalarni tushunamiz. Qissalarda tarixiy voqealik xalq fantaziyasi asosida umumlashgan obrazlarda o'z aksini topadi. Shuning uchun ham ulardagi epik umumlashtirish xalqning ijtimoiy adolat haqidagi ideallari, orzu umidlari, diniy e'tiqodlari bilan uyg'unlashgan bo'ladi. Hazrati Ali haqidagi qissalarda tarixiy haqiqat, real voqealik badiiy to'qima, xayoliy fantaziya bilan yo'g'rilgandir. Qissalar folklorga xos ohang va til bilan bayon etiladi.

“Zarqum qissasi”, “Dostoni Anqou Qahqaha”, “Qissayi Ubudiyati Shomiy” qissalarida insoniy qiyofasini yuqotgan Zarqum, Qahqaha va Umar Abduvayt Shomiy singari zulm egalari tanqid qilinadi. Rasullulloh Muhammadning tadbirkorligi, Hazrati Alining bahodirona kurashi tufayli el boshidan zulm tig'i va qora bulutlar daf etiladi. Voqealarda Hazrati Ali sarguzashti orqali xalqning suyukli qahramoni bahodirligining turli qirralari ochib boriladi. Jumladan, Iroq shahri podshohi Zarqum bilan bo'lgan tengsiz jang tafsilotlarida Hazrati Alining harbiy sarkarda sifatida olib borgan jang usullari, Ona yurt, tinchlik, tenglik; adolat uchun olib borgan kurashlarida Hazrati Alining o'z e'tiqodi, xalqlar tinchligi va tengligi uchun o'z jonini

ham ayamaganini ko`rsak, jang maydonida asir tushgan kishilar va o`g`illari uchun bir tirik inson, ota sifatida qayg`u alam chekanining guvohi bo`lamiz.

“Dostoni Anqou Qahqaha” qissasida esa Muhammad payg`ambar boshliq diniy islom fidoiylari zolim va fosiq Qahqaha podsholidan jabr ko`rgan Husom otliq yigitning- mol-dunyosi tortib olinib, o`zi va bola chaqasi o`limga mahkum etilgan oddiy kishining or-nomusini himoya qilganliklari haqida so`z boradi. Yana shunisi diqqatga loyiqki, Hazrati Ali harbiy taktikani yaxshi bilganligi uchun hiyla ishlatib Qahqahadek firibgar, podshohni ham jang maydonida taslim qildiradi.

“Qissayi Ubudiyati Shomiy” asarida Akka (Chakka) shahrining podshohi Umar Abduvayt (Ubudiyat) boshliq bir guruh yo`lto`sarlar ishi bilan bog`liq voqealar bayon qilinadi.

Umar Abduvayt Shomiy xalqaro savdo shartlarini buzib yurtiga kelgan savdogarlarning molini talab, o`zlarini quloq burunlarini kesib, zulm o`tkazadi. Bu jabrdiydalarning haq-huquqini himoya qilish uchun ham Hazrati Ali mardlik ko`rsatib yakkama-yakka jangda o`z raqibini yengadi. Ko`rinadiki, “Zarqum qissasi”, “Dostoni Anqou Qahqaha”, “Qissayi Ubudiyati Shomiy” qissalardagi voqealar go`yasi ikki din vakillari o`rtasidagi kurashdek ko`rinsa-da, aslida adolat uchun olib borilgan kurashning tantanasidir.

Musulmonlar orasida turli qavm vakillari bo`lishiga qaramay, ular umuminsoniy orzu-tinchlik, tenglik, adolat uchun kurash olib boradilar. Aslida ham insoniyat olami o`tgan davrlar mobaynida ham tinchlik, tenglik, adolat bayrog`i ostida kurash olib borganlar. Bu g`oya insonlar o`rtasidagi asl maqsadga yaqin bo`lib, har qanday diniy irqiy cheklanganlikni tan olmaydi.

Qissalardagi voqealar o`ta sharqona berilgan. Uni o`qigan kitobxon otabobolarimizning tashqi dushmanlarga qarshi olib borgan vatanparvarlik

kurashlarini, e'tiqodlarimizga qarshi boruvchilarni xudbin sifatida qarashlarning guvohi bo'lamiz. Shuni ta'kidlash lozimki, qissa qahramonlari dinniy-afsonaviy bo'lsa-da ular din, mazhab, irq, millatlar o'rtasida kurash olib bormaydi, balki har qanday jamiyatdagi "yomon" va "yaxshi" kishilar o'rtasida kurash olib boradilar.

Xulosa qilib aytganda, Hazrati Ali (r.a) hayoti va adabiy merosi hamma zamonlarda Sharq xalqlari orasida o'rnak bo'lib kelgan. Shuning uchun insonlar undan o'rganganlar, an'alarini davom ettirganlar. Bu ta'sir o'zbek mumtoz adabiyotida ham sezilarli. Avvalo, o'zbek xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotida Hazrati Ali(r.a) hayoti, shaxsi haqidagi jangnoma asarlar borki, ularda Hazrati Ali(r.a)ning qahramonligi, insonparvarligi va islom dini ravnaqiga qo'shgan xizmati pandnoma ruhida beriladi. Shuningdek, Hazrati Ali (r.a) adabiy merosi ta'sirida vujudga kelgan asarlar ham borki, ularning tarbiyaviy, didaktik jihatlari beqiyos. Har ikki jihatning ham inson kamolotida muhim sanalgan tarbiyaviy ma'rifiy g'oyalar bilan sug'orilganligi bilan ahamiyatlidir.

2.2. Sa'd Vaqqos va Ibrohim Adham haqidagi qissalar badiiyati.

XVIII asr boshlarida Markaziy Osiyo hududlari Arab xalafaligi tomonidan bosib olinganligidan keyin uzoq asrlardan beri xalqning asosiy e'tiqodi bo'lgan Zardushtiylik-otashparastlik hamda u bilan birgalikda mavjud bo'lgan buddaviylik, nasroniylik kabi e'tiqodlarning o'rnini islom mafkurasi va e'tiqodi egalladi. Musulmonlikning dastlabki manbalari bo'lmish “Qur’oni Karim” va payg`ambarlar (a.s) hadislarini tez orada dastlab ziyoli kishilar, so`ngra oddiy xalq ongi va tafakkuridan mustahkam o`rin egallaydi. Islom mafkurasi bilan birgalikda ushbu mafkuraga oid bo'lgan diniy rivoyatlar, payg`ambarlar haqidagi syujetlar, sahobalar va valiysifat kishilar haqidagi rivoyatlar ham keng tarqaldi. Buning natijasida avval kichik syujetli rivoyat, naql tarzida so`ngra yirik hajmdagi qissa va dostonlar shaklida diniy syujetlar asosidagi asarlar maydonga keldi. Ular bir tomondan professional ijodkorlar tomonidan muayyan janr talablariga mos holda yaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, oddiy xalq orasidan chiqqan shoirtabiat, ijodkor talent egalari yoki baxshi va qissaxonlar tomonidan soda uslub va tushunarli tilde yaratildi. Markaziy Osiyoda yashovchi xalqlar adabiyotida “Qur’on”dan olingan syujetlardan tashqari ko`plab diniy mavzulardagi qissalar ham borki, ularda Muhammad payg`ambar, ul zotning jiyanlari, kuyovlari va to`rtinchi xalifalari Ali ibn AbuTolib, qizlari Fotima, nevaralari Imom Hasan va Imom Husayn hamda Amir Hamza, Sa'd ibn Abu Vaqqos kabi payg`ambar (a.s)ga yaqin bo'lgan sahobalar obrazlari ishtirok etadi. Mazkur qissalar syujeti odatda muayyan tarixiy asosga ega bo'lsa-da asosan to`qima epizodlardan tashkil topgan. XVIII- XIX asrlarda yaratilgan va keng tarqalgan “Sa'd Vaqqos” qissasi ham shular jumlasidandir.

Sa'd ibn Abu Vaqqos Eronni fath etishda ishtirok etgan arab sarkarlaridan bo'lib, Markaziy Osiyo xalqlari orasida ham ancha katta shuhrat qozongan. Uning bu hududlarga kelganligini tasdiqlovchi tarixiy

ma'lumotlar mavjud bo'lmasa – da yurtimizda Sa'd Vaqqos shaxsiyati bilan bog'lanadigan bir necha toponimik ob'ektlar, hozirda ziyoratgohga aylangan maskanlar ham bor.

Sa'd Vaqqosning qahramonliklari, jasorati, saxovatpeshaligi va boshqa insoniy fazilatlari haqida hikoya qiluvchi afsona, rivoyatlar va qissalar ham keng tarqalgan bo'lib, ular syujet nuqtai nazaridan ayrim tafovutlarga ham ega. Mazkur qissalar haqidagi mulohazalarga o'tishdan oldin Sa'd Vaqqos haqidagi tarixiy ma'lumotlarni qisqacha keltiramiz.

Sa'd ibn Abu Vaqqos tarixiy shaxs bo'lib uning to'liq ismi Malik ibn Abdumannof al - Qurayshiy Zahriydir. U taxminan 590 yilda Makkada tavallud topgan bo'lib, Quraysh qabilasidan Bani Zuhra urug'idan bo'lgan. Islom dinini qabul qilgan dastlabki sahobalardan bo'lgan Sa'd Vaqqos nihoyatda jasur, mard, mohir jangchi va mergan bo'lgan. U musulmonlarning barcha janglarida ishtirok etgan va o'z jasoratlari bilan yuksak hurmat qozongan edi. Uxud tog'i yonidagi jangda payg'ambar (a.s)ning qo'riqchilaridan bo'lib mingdan ortiq o'q uzganligi rivoyat qilinadi.

Sa'd Vaqqosga tarixiy shuhrat keltirgan voqea Qodisiya jangidir. 636 yilda bo'lgan bu jangda u Rustam boshchiligidagi 40 ming askarlardan iborat fors qo'shinini enggan. Shundan keyin Eron davlatining poytaxti Madoin shahrini hamda Sasoniy shohlarning xazinalarini qo'lga kiritgan. U ma'lum muddat xalifalikning Eron va Iroqdagi noibi vazifasini bajargan. Kufa shahrining barpo etilishi ham Sa'di Vaqqos nomi bilan bog'lanadi. Xalifa Usmonning fojeali o'limidan keyin biron-bir ishga qo'shilmay zohidlik yo'lga o'tgan. Xalifa Muoviya huzuriga chaqirtirilganda rad etgan hamda o'zining Madina shahri tashqarisidagi uyida 84 yoshda 674 yilda vafot etgan. Uning vasiyatiga binoan Badr jangida kiygan hamda 55 yildan beri asrab kelgan kiyimi – jundan to'qilgan bir jubbasini bilan kafanlangan [14].

Sa'd Vaqqos musulmon olami tarixida katta obro` - e'tiborga ega bo'lgan shaxslardan edi. U tirikligidayoq jannatga kirishi bashorat qilingan o`nta inson – “asharai mubbashshara” dan bittasi edi.

Sa'd Vaqqos shaxsiyati, insoniy fazilatlari, jasorati oddiy xalq orasida shuhrat taratib, dastlab Ajam xalqlari orasida, keyinchalik Xuroson va movarounnahr xalqlari orasida ham turli-tuman rivoyat va qissalarga aylangan. Ularda tarixiy haqiqat va badiiy to`qimalarning qo`shilishi natijasida yaxlit asralar, qissalar maydonga kelgan. Sa'd Vaqqos nomi bilan yuritiladigan qissalar asosan XVIII- XIX asrlar adabiyotining mahsuli bo`lib, o`zbek, tojik, turkman, ozarbijon xalqlari orasida keng tarqalgan. Uning turli variant va versiyalariga oid nusxalar mamlakatimizning qo`lyozma kitoblar saqlanadigan fondlarida ham mavjud. Xususan, Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat Universiteti ARM. Sharq qo`lyozmalari bo`limida ham mazkur qissaning bir necha qo`lyozma va toshbosma nusxalari bor.

Mashhur turkman mumtoz adabiyoti namoyondasi Nurmuhamad Andalib ham “Sa'd Vaqqos” nomli qissa yozganligi ma'lum. Bu haqda Andalib ijodi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar yaratgan ustozimiz adabiyotshunos Q. Tohirovning nomzodlik dissertasiyasi va boshqa ilmiy ishlarida ma'lumot berilgan.

Andalibning qissasi she'riy yo`lda murabba shaklida yozilgan. Unda Sa'd Vaqqosning qahramonligi emas, saxovati fidoyiligi ulug`lanadi. Q.Tohirovning “Turkman shoiri Andalib va O`zbek adabiyoti” mavzusidagi nomzodlik disertasiyasida qissaning qisqacha syujeti keltirilgan: “Muhammad (a.s) va u kishining sahobalari o`rtasida suhbat ketayotganda hammadan ham saxiyoq Sa'd Vaqqos degan xulosaga kelinadi. Bundan Hazrati Ali ranjiydilar. Sa'd Vaqqosning saxiyligini sinash maqsadida xotinlari Fotimaning maslahati bilan xizmatkor Qambarni Sa'd Vaqqos

uyiga yuboradilar. Qambar qalandar qiyofasida Sa'd Vaqqos uyiga keladi va unga: "O'g'ling Abdulloning qonini tilab keldim," – deydi. Sa'd Vaqqos o'g'lining roziligi bilan Abdulloni so'yib, qonini Qambarga beradi. Doston oxirida payg'ambar (a.s) va sahobalar Sa'd Vaqqosning uyiga keladilar. Tangrining qudrati va payg'ambarning ishorati bilan Abdullo yana tiriladi. Barcha yig'ilganlar Sa'd Vaqqosning saxovatiga qoyil qoladi" [69. 74].

Shoir voqealar bayonida quyidagicha xulosa chiqaradi:

Mo'min bo'lsang zinhor saxovat ayla,
Odami mo'minga kifoyat ayla,
G'ariblarga mehru shafolat ayla,
Yomon qulga tangri jazo ayladi.

Bir qarashda vahshiylik kabi ko'ringan mazkur qissada asosiy maqsad imon va saxiylik g'oyasini ulug'lashdir. Zero, qissada tasvirlanayotgan davrda kishilar bu olamdagi barcha hodisalar faqatgina tangirining irodasi, izni bilan sodir bo'lishiga isbot talab qilinmaydigan oddiy haqiqat sifatida qaraganlar. Yaratganning irodasi bo'lgan har bir qismat, uning sinovlari mamnuniyat bilan qabul qilingan. Shunday bo'lsa-da, mazkur syujet tarixiylikdan ko'ra badiiy to'qima, muayyan g'oyani ifodalash uchun ijod etilganga o'xshaydi.

Biron bir fazilat egasi (ko'pincha saxiylik) bilan shu fazilat undan ham kuchliroq namoyon bo'ladigan kishi obrazini yonma-yon keltirish usuli mumtoz adabiyotida keng qo'llanadi. Xususan, Alisher Navoiyning "Hayrat ul – abror" dostonidagi beshinchi maqolatning ilovasi, yani "Hotami Toy" hikoyati, "Sab'ayi sayyor" dostonidagi to'rtinchi musofirning "Juna va Ma'sud" haqidagi hikoyasi bunga yaqqol dalil bo'la oladi.

"Sa'd Vaqqos" qissasida ham shunday usuldan foydalanilgan. Chunki Hazrat Ali boshqa fazilatlari qatorida saxovatpeshaligi bilan ham

mashhur, bu borada ham tengsiz deb hisoblanar edi. Bir rivoyatda aytilishicha:

Bir kuni Hazrati Fotima roziyallohu anhu betob bo'lib, ko'ngillari anor yeyishni tusadi. Bu haqda sohiblari Hazrati Aliga aytgan edilar, u zot borib, bozordan bir dona anor xarid qiladilar. Chunki pullari faqat bitta anorga yetar edi. Qaytayotganlarida bir gado yo'liqib, o'sha anorni berishlarini so'raydi. Hazrati Alining hayo va iymonlari "yo'q" deyishga yo'l qo'ymay, anorni gadoga tutqazadilar. Uyga kelganlaridan keyin ayollariga uzr aytib, voqeani so'zlab beradilar. Fotima roziyallohu anho: "Alloh sizdan rozi bo'lsin, ajringizni bersin", deb xursand bo'ladilar. Shunda bir oz fursat o'tib, eshik taqilaydi. Ali roziyallohu anhu eshikni ochib qarasalar, Salmon Forsiy turibdilar. Qo'llaridagi idishda to'qqiz dona anor. Idishni uzatib: "Rasululloh sallallohu alayhi vasallam berib yubordilar", deydi. Hazrati Ali shunda aytadilarki: "Yo'q, agar Rasululloh berib yuborgan bo'lsalar, o'nta bo'lishi kerak. Chunki Alloh taolo bir yaxshilikka o'nta savob va'da qilgan". Bu gapdan keyin Salmon Forsiy cho'ntaklaridan o'ninchi anorni ham chiqarib: "Barokat uchun olib qolgan edim", deb aytadilar.⁷

Shunday saxovat egasi bilan Sa'd Vaqqos timsollarini yonma-yon qo'yish orqali muallif saxiylik tushunchasining yuksak darajadagi namunasini yaratishga erishgan.

Qissada Sa'd Vaqqosning saxovatpeshaligi quyidagi epizodlarda namoyon bo'ladi:

Har na borin olib chiqdi gadog'a,
Mashg'ul bo'ldi gado aylab sanog'a,

⁷Musulmonlar taqvim kitobi IV son, 1999 (1420) yil

Qabul qilmay nazrin boqdi samog'a,
Olmay nazrin Sa'dni izo ayladi.

Sa'd Vaqqos dedi keraksa molim,
Fido bo'lsin senga bu xonu monim,
Maqsadingni degil, jonu jahonim,
Arzim budur debon duo ayladi.

“Sa'd Vaqqos” qissasida ota va farzand o'rtasidagi munosabat, emotsional-ruhiy holat tasviriga katta e'tibor berilgan. Bu borada asar xalq orasida nihoyatda mashhur bo'lgan boshqa bir qissa “Qissai Ibrohim Adham”ni eslatadi.

Asardagi xarakterli timsollardan biri Sa'd Vaqqosning o'g'li Abdulloh timsolidir. Uni muallf quyidagicha tanishtiradi:

Bor edi bir o'g'li Sa'd Vaqqosning,
Oti Abdullodur ul xos alxosning,
Qur'on o'qir ekan gul ixlosining,
O'g'lim Abdullo deb sado ayladi.

Yana bir o'rinda Hazrat Ali tillaridan: “... o'n to'rt yashar, hofizi Qur'on (Qur'onni yod olgan), Yuzi o'n to'rt kunlik eldin namoyon, Bor emish sanda bir nozanin o'g'lon...” deb ta'riflanadi. Ushbu qisqagina ta'riflarda ham biz muallifning Abdullohga nisbatan nihoyatda iliq bir mehrini his qilamiz.

Qambar qalandar qiyofasida kelib Sa'd Vaqqosning o'n to'rt yoshli, “Qur'onxon” o'g'li Abdullohning qonini so'raganda ota o'g'liga shunday yuzlanadi:

Na javob aytasiz ey jonim o'g'lim,
 Norizo bo'lmasin mehmonim o'g'lim,
 Sensan ikki jahon sultonim o'g'lim,
 O'g'li jon bermagin rizo ayladi.

Otajon roziman mehmoning o'lsa,
 Kerak bo'lsa olsun gar qonim o'lsa,
 Mening uchun kelan mehmonim o'lsa,
 Aziz jon chiqmag'a fido ayladi.

“Qissai Ibrohim Adham” da ham shunga o'xshash epizid mavjud:

Alqissa, ota-o'g'ul bir-birlarini ahvollarini so'rab bu so'zda erdi, xudoyi taolodin nido keldikim: Ey Ibrohim, o'g'lung birlan bo'lub, mani unutding, emdi o'g'lungdin kechkil va yo mandin, dedi. Ersal sulton Ibrohim xudoyi taologa munajat qilib, bu g'azalni o'qudi:

...Haqiqat yo'lig'a kirdim, bu o'g'lum bahridin kechtim,
 Ajalni bolidin ichtim, kerakmasdur bu jon emdi...
 Der Ibrohim: Xudovandim, umidim ko'p erur sandin,
 Keraksa, ol bu farzandim, kechibmen begumon emdi [55. 72].

Bu esa xalq qissalariga xos bolgan hodisa – muayyan syujet epizodlarining takrorlanishi, sayyor epizodlarga misol bo'la oladi. Bu haqda keying bobda batafsilroq to'xtalamiz.

“Qissayi Ibrohim Adham” da uch avlod (Adham devona – Sulton Ibrohim Adham – o'g'li Muhammad) taqdiri haqida birin – ketin so'z yuritilganligi bois sarni silsilasi syujetli qissaler qatoriga kiritish mumkin.

Asarda Ibrohim Sulton bilan bog`liq voqea eng asosiysi hisoblanadi. Qissa Ibrohimning (tug`ilishidan oldin) otasi Adham devona sarguzashtlari haqidagi bayon bilan boshlanadi. So`ngra uning farzandi Ibrohimning tug`ilishidan tortib, taxtga o`tirishi, tarkidunyo qilishi va haqiqiy oshiq so`fiy darajasiga etishishi bilan bog`liq voqealar tasvirlanadi. Asar so`ngrog`ida Ibrohimning o`g`li Muhammad haqida deyarli kam ma`lumot berilgan. Ya`ni uning otasini izlab topishi hsmda Ibrohimning oily ishq uchun qurbon bo`lishi ko`rsatilgan. Ushbu voqealar tizimi Adham devonaning keying hayoti hamda Muhammadning shaxsiyati haqida kengroq ma`lumot berilmaydi. Asarda bu qahramonlarning kiritilishi Ibrohim Adhamning fe`l – atvori, tanlagan yo`lini kengroq yoritib berish uchun xizmat qilgan. Y`ani sultonning taxtdan o`z ixtiyori bilan voz kechishi otasiniki bilan o`xshash ekanligi bilinadi. Taqvodor va zohid insonning farzandi ham ota yurgan yo`ldan yuradi. Komillik darajasiga erishish yo`lidagi sinoatlar Ibrohim Adhamni haqiqiy oshiq sifatida tarbiyalab yuradi va uning Allohga bo`lgan muhabbati qanchalik kuchli ekanligi o`g`li Muhammad otasini qidirib topgan lavhada ko`rinadi. Bunda Ibrohim Adham oldida ikki yo`l turadi: yo farzand muhabbati, yo Alloh muhabbati. Shu asnoda Ibrohim sinovdan o`tadi, o`g`lini Alloh ishqiy yo`liga qurbon qiladi. Qolgan umrini Qubays tog`idagi g`orda toat-ibodat bilan o`tkazib, u dunyoga chin oshiq sifatida rixlat etadi. Ham o`g`lining dog`iga, ham reining firoqiga chiday olmay, kuyib yongan Zulfiyabibi ikkovining qabri ustida jon taslim qiladi. Asar ana shunday fojia bilan yakunlanadi. Asaer so`ngida Ibrohim Adhamning muridlaridan biri duoi fотиha o`qib, xayolan pirining ruhi bilan gaplashgani, Ibrohim Adhamning diydoriga yetishgani va unga jannat ato etilganligi bayon qilingan. Qissa miridning piriga aytgan muxammasi bilan yakunlanadi. Tarix –sanasi qayd etilmagan.

Asarda Malikshoh (Balx shohi), Sarafroz(vazir), Malikai Xubon (shoxning qizi), Gulafzo (malikaning enagasi), Adham devona, zulfiyabibi (Ibrohimning xotini), bibi Robe'a, Muhammad (Ibrohimning o'g'li)singari epizodik obrazlar qatnashgan. Qahramonning tarjimai holi badiiy to'qimalar bilan yo'g'ralgan. Hayotiy haqiqatgaga nisbatan bo'rttirib ko'rsatilgan lavhalarda bosh qahramon sifatlari yanada yaqqolroq ko'rinadi va u insonlar nazdida g'ayrioddiy kishi bo'lib gavdalanadi.

Alisher Navoiyning yozishicha, Ibrohim Adham o'z birodarlari bilan nihoyatda oz miqdorda, faqat qomatni ko'tarib yurishga kifoya qiladigan miqdorda ovqatlanib yashashga kelishgan ekan. O'tmishda atoqli mutasavvuflarning ko'plari ana shunday hayot kechirganlar va shu orqali yuksak ma'naviy-ruhiy yutuqlarga erishganlar. Bunday mutasavvuflarni Alisher Navoiy azizlar deydi va hatto shohlar ham ularning ostonalariga yuzlarini surtib, tuprog'ini ko'zlariga to'tiyo qilganliklarini yozadi. Bunday mutasavvuflarning o'z nafslarini jilovlab, g'orlarda uzlatda yashashlari orqali hosil qilgan foydalari, ya'ni ilmlari umum insoniyat manfaatlari uchun xizmat qilgan" [55. 4].

Ibrohim Adham haqidagi rivoyatlarda olg'a suriladigan asosiy g'oyalar kamtarona hayot kechirish, rahmdil bo'lish, nafsga azob berish orqali ruhiy pokizalikka erishish, bu dunyoda hech bir kishiga, hatto jonivorlarga ham ozor bermaslikka undash kabilardir. Bunday xususiyat diniy-didktik qissalarning deyarli barchasiga xosdir. Biroq yoqorida ko'rib o'tgan diniy timsollar haqidagi qissalarda mazkur g'oyalar ko'proq amaliy harakatlarda namoyon bo'lsa, tasavvufiy timsollar haqidagi qissalarda ular asosan ruhiyat tasviri sifatida gavdalanadi. "Ibrohim Adham" qissasini nashrga tayyorlagan olim Q.Tohirov quyidagi mulohazalarini bildiradi: "Ayrim mutasavvuflar aqidasi ko'ra, inson jismi, tanasi tuproqdan yasalganligi uchun yeyish-ichish, bezanish, shahvoniy hirslerden lazzatlanish kabilarni yoqtiradi.

Shuning uchun tana insonni tubanlikka undaydi. Ruh esa bundan azon chekadi. Tana bilan ruh o'rtasida doimiy kurash ketadi. Bu kurashda tana g'olib kelsa, inson razolatga botadi. Agar ruh g'olib kelsa, inson ma'naviy yuksaklikka erishadi, bu dunyo bilan bog'liq har qanday tubanliklardan – boylikka hirs qo'yish, kishilarga ozor berish, vafosizlik, zolimlik, makr kabilardan xalos bo'ladi. Tanani o'ziga bo'ysundirgan ruh o'zga olam bilan aloqa bo'g'lay oladi. Bunday aloqa insoniyat uchun nihoyatda kata ahamiyatga ega bo'lgan ilm-ma'rifatga yo'l ochadi" [55. 4-5].

Mazkur bob davomida o'rganilgan masalalar asosida quyidagi xulosalarni bildirish mumkin. Hazrati Ali (r.a) hayoti va adabiy merosi o'zbek mumtoz adabiyotida ham sezilarlita'sir ko'rsatgan. O'zbek xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotida bir turkum asarlar borki, ularda Hazrati Ali(r.a)ning qahramonligi, insonparvarligi, din ravnaqi yo'lidagi xizmati pandnoma ruhida beriladi. Binobarin, ularning tarbiyaviy, didaktik jihatlari ahamiyatlidir.

Hazrat Ali shaxsiyatlari bir tomondan olim, mutafakkir ijodkor, shoirlar sardori sifatida Sharq xalqlari mafkurasi va badiiy ijodiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan e'tiqodda sobitlik, mardlik, jasorat, harbiy mahorat kabilarning o'ziga xos timsoli vazifasini bajargan. Shu mavzuda tadqiqot olib brogan olim Shamsulhaq Oriyonfarning ma'lumot berishicha, ayrim rivoyat va afsonalarda Hazrat Ali afsonaviy pahlavon Rustam bilan ham yonma yon tasvirlangan [66. 16].

Hazrat Ali haqida bitilgan asarlar orasida "Zarqum qissasi", "Dostoni Anqou Qahqaha", "Qissayi Ubudiyati Shomiy" qissalari alohida o'ringa ega. Ularda Hazrati Alining bahodirona kurashi tufayli el boshidan zulm tig'i va qora bulutlarning daf etilishi, o'z e'tiqodi, xalqlar tinchligi va tengligi uchun o'z jonini ham ayamaganini ko'rsak, jang maydonida asir tushgan kishilar va o'g'illari uchun bir tirik inson, ota sifatida qayg'u alam chekanining guvohi

bo'lamiz. Shuni ta'kidlash lozimki, qissa qahramonlari din, mazhab, irq, millatlar o'rtasida emas, balki har qanday jamiyatdagi "yomon" va "yaxshi" kishilar o'rtasida kurash olib boradilar.

Hazrat Ali qatnashadigan o'gzaki ijod namunalari hamda xalq qissalari xalqning turmush tarzi, asar yaratilgan tarixiy sharoit bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ularda Hazrat Ali timsoli tarixiy haqiqat bilan birga afsonaviy va ertak qahramonlariga ham yaqinlashtiriladi.

Diniy-didaktik qissalarning o'ziga xos namunasi "Sa'd Vaqqos" asaridir. Tarixan Hazrat Ali yoxud Amir Hamza singari shijoat, jasorat va mardlik timsollaridan bo'lgan mazkur tarixiy shaxs haqida bitilgan qissalarda Sa'd Vaqqos mustahkam e'tiqod, saxovat va himmat timsoli sifatida ham namoyon bo'ladi. U haqda yaratilgan va xalq orasida katta shuhrat qozongan qissalar adabiyotshunoslikda hali yetarli darajada o'rganilmagan. Binobarin, bu kelajakdagi muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Mazkur qissa ko'p jihatdan Sharqda mashhur bo'lgan "Ibrohim Adham" qissasi bilan hamohanglik kasb etadi. Buni ayrim syujet epizodlarida ham, asarning umumiy ruhiyatida ham kuzatishimiz mumkin. Binobarin "Ibrohim Adham" kabi mutasavvuf shaxslar haqidagi qissalarni aynan diniy-didaktik qissalar bilan qiyosan o'rganish ularning janriy va poetik xususiyatlarini to'laroq yoritish imkonini beradi.

III. BOB. XALQ QISSALARIDA TARIXIYLIK VA BADIY MAHORAT.

3.1. Qissalarda hayot haqiqati va badiiy to`qima.

Sobiq ittifoq davrida xalqimiz ma'naviy va madaniy xazinasining ko'plab durdonalari turli sabablarga ko'ra ilmiy jamoatchilik va kitobxonlar nazaridan chetda saqlandi. Ularning ayrimlari diniy mazmunda ekanligi, ayrimlari tasavvuf ta'limoti namoyandalari hayoti haqida hikoya qilishi, ba'zilar hukmdor tabaqa vakillari shaxsiyatlari bilan bog'liq bo'lishi tufayli tadqiqot doiralaridan chetda qolgan bo'lsa, ayrimlariga shunchaki professional shoir qalamiga mansub bo'lmagan, past saviyadagi asar sifatida e'tibor qaratilmadi. Biroq tarixiy voqelikning guvohlik berishicha, aynan shunday asarlar oddiy xalq orasida ko'proq shuhrat qozongan, qayta-qayta ko'chirilgan hamda ilk bosmaxonalarda ko'plab nusxalarda chop etilgan. Ularni albatta mumtoz shoirlarning asarlari bilan badiiyat mezonlari asosida solishtirib bo'lmaydi. Shunga qaramay, mamlakatimiz va undan tashqaridagi qo'lyozma kitoblar saqlanadigan fondlarda son-sanoqsiz nusxalarda mavjud bo'lgan bunday asarlar adabiy manba bo'lish barobarida, xalqning tafakkuri, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, urf-odatlari voqelikni badiiy idrok etish darajasi, o'tmish ajdodlarga munosabati haqida ma'lumot beruvchi qimmatli manbalar sanaladi.

Shularni inobatga olgan holda, keyingi paytlarda xalq kitoblari rukni ostida ko'plab doston va qissalar nashr etilmoqda. Shu bilan birga, bu guruhga kiruvchi asarlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, ularda tarixiy voqelikning badiiy in'ikosi masalalari ham ilmiy jamoatchilikning e'tiborini tobora ko'proq jalb etmoqda.

Xalq kitoblari yoxud qissalarini yaratilish asosiga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Qadimdan xalq orasida ma'lum va mashhur bo'lgan, bir xalqdan ikkinchisiga, bir tildan ikkinchisiga ko'chib yuruvchi sayyor syujetlarning qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan asarlar.
2. Muayyan tarixiy shaxs yoki tarixiy voqelikning badiiy talqini sifatida maydonga kelgan asarlar.

Badiiy-biografik xarakterdagi qissalar ikkinchi guruhga mansub bo'lib, ularda tarixiy voqelik va badiiy to'qima, an'anaviy syujet epozodlari va muallifning ariginal ijodiy topilmalari kabi masalalar o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Buni oldingi boblarda tavsif va tahlil etilgan "Qissai Mirzo Hamdam", "Sayid Nasimiy", "Qissai Shoh Mashrab", "Ibrohim Adham", "Sa'd Vaqqos" hamda Hazrat Ali sarguzashtlariga bag'ishlangan qissalar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, "Mirzo Hamdam" qissasida "...Jomiyning Samarqanddagi hayoti zaminida yuzaga kelgan rivoyatlardan foydalanilgan". Abdurahmon Jomiy 1436-1452 yillarda Samarqandda bo'lganligi, Mirzo Ullo'bek asos solgan madrasayi oliyada tahsil olib tugatgach, uch yil davomida mudarris sifatida faoliyat olib borganligi tarixiy manbalar hamda adabiyot tarixiga oid darslik va o'quv adabiyotlaridan ma'lum. Xususan, bu haqda Samarqand olimlarining ustози akademik B.Valixojayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" o'quv qo'llanmalarida batafsil ma'lumot berilgan [8. 28]. Shuningdek, Sa'duddin Kosho'ariydan naqshbandiya tariqatini qabul qilgan Jomiy Xoja Ahror suhbatlariga etishish uchun to'rt marotaba Samarqandga kelganliklari hamda aynan shu mo'tabar inson tarbiyalarida kamolotga etganligi ham tarixiy haqiqat. Mazkur holatlar "Mirzo Hamdam" qissasi syujetining yaratilishida asos bo'lganligi shubhasiz. Asar oxirida Mavlaviy Jomiyning yangi usul "Naqshi Mullo"ni yaratganligi tilga olinadi: "Shu asnoda Hazrati Jomiyga jazba tegdi. Ular "Naqshi Mullo"ga tushdilar va yoronlariga ta'lim berdilar" [58]. "Naqshi

Mullo" nomi bilan yuritiladigan ta'limot yoki tariqat ma'lum emas. Biroq bunda Abdurahmon Jomiy o'zi mansub bo'lgan naqshbandiya tariqatining shunchaki davomchisi emas, o'ziga xos tarmog'i, yo'nalishini maydonga keltirgan mutafakkir, murshid ekanligiga ishora mavjud. Shuningdek, Jomiyning tolibi ilmlar orasida katta shuhrat qozongan, madrasalarda darslik sifatida o'qitilgan "Sharhi Mullo" asari ham yuqoridagi tushunchaning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

Qissadagi asosiy vaqealar Samarqandda Mirzo Ullo'bek asos solgan Madrasai oliyada kechadi. Unda Abdurahmon Jomiy bilan birga Sulton Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy timsollari ham ishtirok etadi. Asarni nashr ettirgan olimlarning fikriga ko'ra: "Qissa muallifi Jomiyning "hamdam" so'zi uchraydigan g'azallari asosida bu voqeani o'ylab chiqargan va bu qissa orqali Jomiy g'azallarini xalq orasiga yoyishni istagan" [58. 5].

Ushbu mulohazalar muayyan asosga ega, albatta. Zero xalq qissachiligida shunga o'xshash holatlarni ko'plab kuzatish mumkin. Ko'pincha murakkab mazmunga ega bo'lgan she'r yoki fikr tamoman boshqa mazmunda talqin qilinib, uning asosida syujetlar yuzaga keladi. Bunday holatni biz "Sayid Nasimiy" va "Shoh Mashrab qissalarida ham ko'rishimiz mumkin. Biroq qissada Jomiyga nisbat berilgan she'riy matnlarning ko'pchiligi (xususan, "hamdam" so'zi qatnashgan baytlar) aslida Jomiy yoki Nuriddin Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub emas. Q.Tohirovning ma'lumot berishlaricha "Qissada Abdurahmon Jomiyning salaflaridan biri mashhur mutasavvuf Ahmadi Jomiy she'rlari va "Chahor pari" dostonidan foydalanilgan" [25]. Bu ma'lumotni tekshirib ko'rish imkoniyati bizda hozircha mavjud emas. Biroq Abdurahmon Jomiyning nashr ettirilgan devonlari bilan qiyoslash imkoniyati bor.

Qissa tarkibida she'riy matnlar asosan o'azal va ruboiy janrlariga mansub. She'rlarning aksariati Jomiyga nisbat berilgan, shuningdek, Sulton

Husayn va Mirza Hamdam nomidan keltirilgan misralar ham bor. Abdurahmon Jomiyning "Kulliyot"i tarkibida nashr ettirilgan devoni bilan qiyoslagan holda hozircha "Mirzo Hamdam" qissasi tarkibidagi ikkita she`r chindan ham Nuriddin Abdurahmon Jomiyning qalamiga mansub ekanligi aniqlandi.

Ey mehri tu az subhi azal hamnafasi mo,
Sar to sari ofoq sadoi jarasi mo.

Tarjimasi:

Ey mehring azaldin mani xud hamnafasidur ,
Boshdin-oyoq olamda sadoyi jarasimdur. [58. 27]

Ushbu bayt, aniqrog'i misralar Abdurahmon Jomiy devonida mavjud. Biroq boshqacha tarzda:

Ey mehri tu az subhi azal hamnafasi mo,
Ko'toh zi domoni tu dasti havasi mo,

Mo qofilai ka`bai ishqem, ki raftast,
Sar to sari ofoq sadoi jarasi mo. [46. 56]

Mazmuni: Eyki, mehring azal tongidan beri bizga hamnafas, bizning havasmand qo'limiz kaltaligidan sening etagingga etmaydi. Biz ishq ka`basi (uyi)ning guruhi, karvonimiz, bizning nidomiz sadosi butun koinotda jaranglaydi.

Ikkinchi she`riy matn quyidagicha:

Az xori sho'ri ishq tu dar siyna doram xorho,
Har dam shugufta bo ruxat zon xorho gulzorho.

Ro'y jonibi bo'ston nigar kaz shavqi tu gul dar chaman,
Sad chok karda pirahan, shusta ba xun ruxsorho.

Tarjimasi:

Ishqingni har dam sho'ridin ko'nglumda yuz ming xorlar,
 Dam-dam aro ochilgusi ul xordin gulzorlar.
 Bor, jonibi bo'stona boq, shavqing ila gulshanda gul,
 Yuz chok etib pirohanin qonga yuvmish ruxsorlar. [58. 50]

Ushbu baytlar Jomiy devonida quyidagicha berilgan:

Az xor-xori ishq tu dar sina doram xorho,
 Har dam shukufta bar ruxam z-on xorho gulzorho...

Rah jonibi bo'ston figan, k-az shavqi tu gul dar chaman,
 Sad chok karda pirahan, shusta ba xun ruxsorho. [46. 13]

Mazmuni: Sening ishqing xor-xoridan ko'ksimda tikanlar, bu tikanlar zaxmidan yuzimda gulzor (doo'lar) paydo bo'ldi. Yuzingni bo'ston sari bur, chunki (bechora) gul sening shavqingda ko'ylagini yuz pora qildi, yuzini qon bilan yuvdi.

Ma'lum bo'ladiki, ushbu she'rlar Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub bo'lsa-da, ularning asl varianti bilan qissada keltirilgan shakli o'rtasida jiddiy tafovutlar bor, ba'zan esa she'rlarning mazmuniga ma'lum darajada putur ham yetgan.

Qissadagi Sulton Husayn va Alisher Navoiy timsollari to'lig'icha badiiy to'qima natijasidir. Ularning faoliyati Samarqandga ko'chirilgan. Biroq Alisher Navoiyning vazir va maslahatchi sifatida tasvirlanishi tarixiy haqiqatga mosdir. Umuman, Alisher Navoiy mazkur qissada birgina lavhada ishtirok etadigan epizodik obrazdir:

"Sulton... o'z o'ylariga erk berib o'tirgan edi, Mir Alisher ularning dargohiga kirib keldilar. Ko'rdilarki, Sulton g'am-g'ussaga cho'milib o'ltiribdi, duog'a og'iz ochib bu baytni o'qidilar:

G'am az gardishi ro'zgorat mabod,
 Dar andesha dar dil g'uborat mabod.

Ki bar xotiri podshohi hame,
Parishon shavad xotiri olame.

Mir Alisher dedilar: Ey Sultoni olam, nechuk sizni g'amu andisha va anduh aro ko'rurmen, zamondin sizga ne balolik yetdi" [58].

Biroq shu kichkina epizoda ham Mir Alisher Sultonning eng yaqin kishisigina emas, dono va tadbirkor, Sultonning mushkullarini oson qiluvchi shaxs sifatida gavdalanadi.

Qissa syujeti ko'p jihatdan Sharqda mashhur bo'lgan "Shayx San'on" hikoyatini eslatadi. Xususan, Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidagi mazkur hikoyat [___ 95-134] bilan "Mirzo Hamdam" qissasidagi Mavlono Jomiy sarguzashtlari o'rtasida bir qator mushtarak jihatlar ko'zga tashlanadi.

1. "Lison ut-tayr" dostonidagi Shayx San'onning 400 muridi borligi qayd etiladi:

To'rt yuz ollida ashobu murid,
Har bir andoo'kim Junaydu Boyazid. [48. 96]

Mazkur qissadagi Jomiyning shogirdlari soni ham 400ta: "To'rt yuz saruponi hazrati Mavlaviy Jomiyning xizmatlarida bo'lgan to'rt yuz tolibi ilmga kiydirdilar" [58].

2. Shayx San'on bo'lajak voqealar haqidagi ishorani tushida ko'rgan bo'lsa, Jomiyga xushsurat yigit haqidagi xabarni bir qalandar yetkazadi.

3. Shayx San'on tarso qiziga oshiq bo'lib inon-ixtiyotini yo'qotgan bo'lsa-da, keyinchalik tarso qizi unga ergashadi. Mazkur qissadagi Jomiy ham dastlab Mirzo Hamdam husniga shaydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik Mirzo Hamdam unga ergashib murid tushadi.

4. Ikkala asarda ham Payg'ambar (a.s.)ga niyozmandlik va u muborak zotni tush ko'rish epizodi mavjud.

Jumladan, "Lison ut-tayr"da:

Bir kecha ashki niyoz aylab ravon,
Bo'lmish erdi yio'lamoqdin notavon.

Subh bo'ldi za'fdin behol o'zi,
Ko'z yumub ochquncha yopildi ko'zi.

Ko'rdikim, farxunda nure bo'ldi fosh,
Nur arosinda tulu' etti quyosh...

Anbiyo xatmi, risolat xotami,
Sayyidi olam rasuli hoshimi...

Dedi yuz ming lutf ila shohi rasul,
K-ey ochilo'on boo'i ummidingo'a gul,

Sidq ila tuz niyatingo'a ofarin!
Sa'yu oliy himmatingo'a ofarin!

Oncha zohir aylading ajzu niyoz,
Kim tarahhum birla hayyi korsoz,

Ayladi ajzu niyozingni qabul,
Nolau so'zu gudozingni qabul...

Haq najot etti karomat, shod bo'l,
Shukr aylab qayo'udin ozod bo'l.

"Mirzo Hamdam" qissasida:

"Hazrati Mavlaviy Jomiy munojotni tugatdilar va nolayu zor qilib yotib nogoh uyquga ketdilar. Uyquda yotib tush ko'rsalar, osmondan bir taxt tushibdi. Taxt uzra bir raxt va raxt uzra soflik suffasining sarvari, saxovatning to'lin oyi, qiyomat kundagi shafotxohimiz, ya'ni hazrati Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallam va alarning tanlangan chahor yorlari va imomzodalar xizmatlarida odob qo'llarini qovushtirib turishibdi. Hazrati Mavlaviy Jomiy bu voqealarni ko'rib, boshlarini ularning qadamlariga qo'yidilar... Va libos jihatidan Hazrati Mavlaviy Jomiyning xotirlarini jam qildilar".

Qissalsrda tarixiylik va badiiy to'qima masalasini yoritishda yagona tamoyilga asoslanish ancha mushkul. Masalan, Abdurahmon Jomiyning hayoti va faoliyati haqida ma'lumot beradigan ilmiy va badiiy manbalar, maxsus asarlar bir talay va mutafakkir shoirning tarjimai holi aniq faktlar asosida nisbatan keng yoritilgan. Binobarin, bu kabi qissalarda keltirilgan ma'lumotlar ilmiy material vazifasini bajara olmaydi.

Sayid Nasimiy haqida ham bir qator tazkira va tarixiy asarlarda ma'lumotlar bor. Biroq ular shoir avtobiografiyasini mukammal yorita olmaydi. Shu tufayli u haqda yozilgan qissalar ma'lum o'rinlarda avtobiografik momentlarni aniqlashda yordam beradi.

Boborahim Mashrab haqida ma'lumot beradigan asosiy manba esa u haqda yaratilgan xalq qissasi (asar muallifini aniqlash bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Biroq bu borada hali muayyan to'xtamga kelingani yo'q). Shuning uchun Mashrabning tarjimai holi berilgan darslik va o'quv adabiyotlarida ham ma'lumotlar asosan "Qissai Shoh Mashrab"dan olingan. Biroq masalaga bu kabi yondashish doimo ham kutilgan natijani beravermaydi. Xalq qissalarining syujetini solishtirish natijasida su narsa ma'lum bo'ladiki, "Shoh Mashrab" qissasi tarkibidagi bir qator epizodlar

boshqa qissalarda, boshqa tarixiy shaxslar hayoti bilan bog'langan holda ham uchraydi. Bu hodisa qissalardagi obrazlar tahlilida ko'proq namoyon bo'ladi.

3.2. Qissalarda obraz yaratish mahorati masalasi.

“Sayid Nasimiy” qissasining bosh qahramoni Nasimiy hamda “Shoh Mashrab” ning bosh obrazi Mashrab bo'lib, avvalo, ular tarixiy shaxslardir. Real hayotda ham bir xil iz qoldirgan bu isyonkor shoirlar badiiy tasvirda ham bir-biriga monand xususiyat kasb etib, qissalar sujetida harakatlanadilar. Aytmoqchi bo'lganimiz shuki, har ikkala asarni ham mutolaa qilgan insonlar bunda, aynan bo'lmasa-da, bir shaxsning ikki asarda yaratilgan badiiy timsoli degan xulosaga kelishi mumkin. Nasimiy ham Mashrab ham o'z fikriga sobit valiysifat kishilar bo'lgan. Uch asrlik vaqt oralig'ida yashab o'tgan bu siymolar butun umri davomida din va e'tiqodni niqob qilib olgan riyokor kishilar, muhtasibu zohidlarni ayovsiz fosh qilganlar. She'rlarida ularning qilmishlarini in'ikos etganlar. Shu bois o'sha davrning hukmron sinfi bo'lgan bu din peshvolari ularni ta'qib ostiga olganlar. Mana shu holatlarni qissalar sujetida ham kuzatamiz. Adabiyot hayotning in'ikosi bo'lib, u Nasimiy va Mashrab singari yorqin siymolarni va ular yashagan davr voqealarini o'zida mujassam ettirgan. Adabiyot ixlosmandlari-ijodkorlar ulardan ilhom, ruhiy quvvat olib ijod qilganlar. Avvalo, ular haqida asar yaratishgan bo'lsa, shu bilan birga o'z asarlarning quvvatini oshirish, fikrlarini ta'sirchan qilib berish uchun yo'l-yo'lakay ularning nomlarini zikr etganlar. Buni xalq ijodi namunalarida ham ko'rish mumkin. Shularning natijasida “Sayid Nasimiy” va “Shoh Mashrab” kabi mumtoz asarlar vujudga kelib xalq ma'naviyati, kamoloti yo'lida o'ziga xos o'rin tutgan.

Tasavvufiy ta'limotga ko'ra, Alloh yagona yaratuvchi zot bo'lib, valiysifat kishilar ikki sonini aytishni go'yoki uni ikkilantirish bilan barobar bilganlar. Ma'lumki, arab alifbosidagi “alif” harfi abjad hisobida bir sonini

bildiradi va u Allohning yagonaligi vahdat timsoli sifatida talqin qilinadi. Nasimiy yetti yoshda borganida mullo unga alifbodan saboq bera boshlaydi:

O`qub avvalda ul nomi xudoni,
Ilmga aytibon zikri sanoni.

Tiliga joriy qildi ul “alif”ni,
O`qutmoq uchun ul damda Nasabni.⁸

Nasab “alif” dedi onga barobar,
Desa mullosi “be”ni de, sarosar.

Yana takror aytib qildi ioda,
Nasab na der “be”ni qildi ziyoda.

Ki hargiz “be” demas urdi yuziga,
To`lub xunobadek yoshi ko`ziga.

Dedi mullog`a o`ltursang o`zimni,
Demasman ul so`zing eshit so`zimni...

Dedi bir necha tafsir anda ul on,
Ko`rib oni bu mullo bo`ldi hayron. [53]

Aynan shu holatni “Shoh Mashrab”da ham kuzatamiz:

“....yetti yoshga yetganda xatna qildilar. Andin so`ng maktabga berdilar. Ustozlari aytdilar: “Ey o`g`lim, Bismillohir rahmonir rahim, “alif” deng”. Shoh Mashrab “alif” dedilar. Ustozlari “be” dengo”-dedilar. Shoh

⁸Qissada bu ism Nasimiyning asl ismi sifatida keltirilgan.

Mashrab ustozlaridan soʻrdilarki: “Alif”ni maʼnosi nima va “be”ning maʼnosi nimadur, ey domlao” Ustozlari achchigʻlanib dedilarki: “Ey, bachchai nodon, san kimo’ Bu maʼnini soʻramoq kimo’” Shoh Mashrab aydilar: “Ey domla, “alif”ni maʼnosini siz aytmasangiz, man aytarman”... Shoh Mashrab aydilar: “Domla, “alif”ni maʼnisi birdur. Ul sababdin “be” demasman. Mundin oʻtmak xatodur” [62].

Shundan keyin Nasimiy ham Mashrab ham maktabdan chiqib ketib, choʻl-u biyobon, turfa shaharlarni kezib qalandar-devonasifat hayot kechiradilar. Koʻrinadiki, bir xil sujet “Sayid Nasimiy” qissasida nazmiy, “Qissai Mashrab”da nasriy yoʻl bilan ifoda etilgan. Ikki asardagi ikki obrazning nutqida ham bir xillik mavjud: “-Sizga makon qutlugʻ, bizga yoʻl qutlugʻ boʻlsin,” deya har bir manzildan xayrlashib devonavash sayohatini davom ettiradi.

Shuningdek, Nasimiy hamda Mashrabda oʻz taqdirida nimalar sodir boʻlishini, qanday vafot etishini oldindan bilish, aytib berish kabi valiylik xususiyati bor. Nasimiy oʻz inisi Amirga:

Bu Bagʻdod shahrina sen xon boʻlursan,
Siyosatligʻ ulugʻ sulton boʻlursan.

Mani sangsor etib dora osarsan,
Soʻyorsan terima somon tiqorsan...

Nasab aydi yana devona boʻlgʻum,
Xaloyiq ichra man afsona boʻlgʻum.

Boʻlib xon amring ila oʻlturursan,
Soʻyib terima somon tiqdirursan.

Osib darvozada uch kun terimni,
Senga oydim bo`lujoq bu sirimni. [53]

- deb, o`z taqdirini oldindan bashorat qiladi. Nasimiy shaxsiyati bilan bog`liq bu haqiqat Mashrab tilidan ham bayon etilgan:

Kufr etti deb Nasimiyning terisin so`ydilar,
Go`shti po`stin so`zlatib olamda go`yo qildi ishq.

“Shoh Mashrab”da Mashrab ham kelajakda nimalar sodir bo`lishini oldindan bilib, yurgan yo`lida aytib, uni shunday ifoda etadi:

Mashrabing ham kosayi margi shahodat no`sh etar,
Balx aro Mahmud qo`lida muftalo qilg`on o`lum.

Yoki yana bir o`rinda:

Ketar Mashrab bu dunyodin kafan oluda xun birla,
Qonim Balx shahrini bo`yab, talabda bir qalandarman.

Darhaqiqat, ular Amirshoh va Mahmudshoh hukmi bilan o`ldiradi. Hattoki, podshoh amri hukm qilinayotganda ham o`z so`zidan tonmay jazoni yaqinlashtirishi epizodi ham har ikkala qissada uchraydi. Bu valiysifat insonlar ajalini avvaldan aytishi va shu onda shohlarning hech qachon bu ishga yo`l qo`ymaslik haqida bergan va`dalari, shuningdek, hukm qilayotganda avvalgi voqealarni unutishi kabilar ikki asarda ham bir xil tasvirni yuzaga keltirgan. Ulardagi avliyolik xususiyatlarini ifoda etgan yana bir qancha o`rinlar mavjud. Shulardan biri Nasimiy ham Mashrab ham o`gzidan o`t chiqarib o`tinni olovlatadi.

Haq ishqida devona bo`lgan bu zotlarning birday hayot kechiganligi, adabiyotda ham badiiy timsollarini qiyoslaganda ana shunday qator xususiyatlari bilan o`xshashlikni vujudga keltiradi. Muxtasar qilib aytganda, qissalarning boshidan to oxirigacha (maktabga borishi, u yerdagi voqealar, sayru sayohatlar, shoh oldida ham o`z fikridan qaytmay haqning diydoriga intilishi, insonlar ongida kechayotgan fikrlarni o`qiy olishi, hukmi qatlga

dindorlarning berishi, vafoti qayerdao' qachono' va kimo' tomonidan berilishini oldindan bilishi, o'ldirish usulini jallodlarga o'zini aytishi kabi) bo'lgan voqealar asarlarning sujetida mushtaraklikni namoyon etadi.

Shu bilan birga har ikkala asarda ham obrazlarning ruhiy kechinmalari, nutqlari she'riy yo'l bilan ifoda etilganki, bu ularning ta'sirchanligini oshirib, jonlantirgan. "Sayid Nasimiy" qissasida ham "Qissai Mashrab"da ham bu ikki ijodkor shaxslarning ijodidan namunalar keltirilgan va ushbu holat turfa maqsadlarga xizmat qilgan. Shuni ta'kidlash joizki, aksariyat hollarda bu she'rlar asarga joziba berib, o'z o'rnida voqealarning mazmun ko'lamini kengaytirgan.

"Sa'd Vaqqos" qissasida ota va farzand o'rtasidagi munosabat, emotsional-ruhiy holat tasviriga katta e'tibor berilgan. Bu borada asar xalq orasida nihoyatda mashhur bo'lgan boshqa bir qissa "Qissai Ibrohim Adham"ni eslatadi.

Asardagi xarakterli timsollardan biri Sa'd Vaqqosning o'g'li Abdulloh timsolidir. Uni muallf quyidagicha tanishtiradi:

Bor edi bir o'g'li Sa'd Vaqqosning,
Oti Abdullodur ul xos alxosning,
Qur'on o'qir ekan gul ixlosining,
O'g'lim Abdullo deb sado ayladi.

"... o'n to'rt yashar, hofizi Qur'on (Qur'onni yod olgan), Yuzi o'n to'tr kunlik (oydek) ...bir nozanin o'g'lon..." bo'lgan Abdullohga nisbatan kitrobxonda cheksiz mehr uyg'onadi.

Qambar qalandar qiyofasida kelib Sa'd Vaqqosning o'n to'rt yashar o'g'li Abdullohning qonini so'raganda ota o'g'liga shunday yuzlanadi:

Na javob aytasiz ey jonim o'g'lim,
 Norizo bo'lmasin mehmonim o'g'lim,
 Sensan ikki jahon sultonim o'g'lim,
 O'g'li jon bermagin rizo ayladi.

Otajon roziman mehmoning o'lsa,
 Kerak bo'lsa olsun gar qonim o'lsa,
 Mening uchun kelan mehmonim o'lsa,
 Aziz jon chiqmag'a fido ayladi.

“Qissai Ibrohim Adham” da ham ota va farzand munosabati, eng yaqin insondan ayrilish sinovi o'ta qayg'uli va ta'sirchan tarzda ifodalanadi. Uzoq yillik ayriliqdan keyin Ibrohim hali biron marta ko'rmagan o'glibilan uchrashadi va unda otalik mehri uyg'onadi:

Alqissa, ota-o'g'ul bir-birlarini ahvollarini so'rab bu so'zda erdi, xudoyi taolodin nido keldikim: Ey Ibrohim, o'g'lung birlan bo'lub, mani unutding, emdi o'g'lungdin kechkil va yo mandin, dedi. Ersal sulton Ibrohim xudoyi taologa munojot qilib, bu g'azalni o'qudi:

...Haqiqat yo'lig'a kirdim, bu o'g'lum bahridin kechtim,
 Ajalni bolidin ichtim, kerakmasdur bu jon emdi...

Der Ibrohim: Xudovandim, umidim ko'p erur sandin,
 Keraksa, ol bu farzandim, kechibmen begumon emdi. [55. 72].

Huvaydoning “Dostoni Ibrohim Adham” asarida mazkur lavha she'riy usulda quyidagicha tasvirlangan:

O'shal dam hotifedin keldi ovoz,
 Dedi Ibrohim o'g'lunga bo'lub boz,

Meni qilding faromush, emdi bilgil,
Meni suygil va yo o'g'lungni suygil.

Eshitib bu nidoni bo'ldi behish,
Ichida bahri holat ayladi jo'sh.

- Seni deb taxt-u baxtimdin kechibman,
Ki man vahdat sharobidin ichibman.

Kechib man emdi o'g'lumdin, xudoyo,
Manga sensan keraklik rahnamoyo. [55. 98]

Mazkur epozod XIX asrda yashab o'tgan Xolis Toshkandiyning “Xalq qissalari” yslubida yozilgan “Qissai Ibrohim binni Muhammad” asarida Muhammad (a.s.) va Ul Zotning o'g'illari Ibrohim bilan bog'liq qayg'uli lavhaga juda o'xshaydi. Muhammad (a.s.) bir kuni oldilarida o'ynab turgan uchta go'dak – farzandlari Ibrohim hamda nabiralari Hasan va Husaynga qarab bir lahza mahliyo bo'lib qoladilar:

Ko'ngullari alarga bo'ldi moyil,
Rasululloh alarg'a bog'ladi dil.

Xudoyim rashki oldi bu ravishdin,
Sinoyin man ani dedi bu ishdin.

Xudog'a yoqmadi bu mehribonliq,
Nido qildi o'shal qobizga xoliq...

Agar ummat desa o'g'lin unutsun,
Va gar o'g'lum desa ummatdin o'tsun.

Iki do'st bir ko'ngulga sig'mas erdi,
Xudoyim anga rozi bo'lmas erdi...

Alardin ittim, o'g'lumdin o'tarman,
Hamisha ummating'a so'z tutarman [28. 97].

Mazkur uchala epizodda ham muayyan g'oyaviy mushtaraklik mavjud. Ularda farzand eng aziz inson ekanligi, undan ayrilish eng og'ir musibat va bunga sabr qila olish esa eng oily fazilatlaridan ekanligi obrazli tarzda o'z ifodasini topgan. Bular orasida "Sa'd Vaqqos" qissasining farqli tomoni shundaki, uning xotimasida Muhammad (a.s.) Hazrat Ali va boshqa sahobalar bilan Sa'd Vaqqosning uyiga keladilar va Abdullohning jasadiga xitob etadilar. Shaunda jasadga yana jon kirib Abdulloh qayta tiriladi.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy shaxslar (shoirilar, din va tasavvuf namoyandalari)ning badiiy timsollari yaratilgan xalq qissalarida tarixiy voqelik va badiiy to'qima oziga xos tarzda, qorishiq holda o'z ifodasini topadi. Ularda tarixiylik tasvirlanayotgan shaxsning jamiyatdagi mavqei, asar muallifining ilmiy va ijodiy saviyasi, g'oyaviy maqsadiga muvofiq holda turli darajada namoyon bo'ladi. Badiiy to'qimalar esa ba'zan ijodkorning ariginal ijodiy topilmasi bo'lsa, ba'zan an'anaviy syujet epizidlarining qayta ishlanishi ekanligi ko'zga tashlanadi.

Xalq qissalardagi obrazlar mumtoz asarlardagi timsollardan farqli o'laroq, oddiy kishilar dunyoqarashi, ruhiyatiga yaqin. Ularning hissiyotlari, qayg'u va iztiroblari ham xursandchiligi ham oddiy kitobxonlarning tuyg'ulariga hamohangdir.

XULOSA

XVIII - XIX asrlar o'zbek adabiyoti tarixining ajralmas tarkibiy qismlaridan bo'lmish xalq kitoblari, xalq qissalari va shu uslubda yozilgan asarlar bir necha yillardan beri adabiyotshunoslarimiz e'tiborini tortib kelmoqda. Zero mamlakatimiz va undan tashqaridagi qo'lyozma kitoblar saqlanadigan fondlarda son-sanoqsiz nusxalarda mavjud bo'lgan bunday asarlar adabiy manba bo'lish barobarida xalqning tafakkuri, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, urf-odatlarini voqelikni badiiy idrok etish darajasi, o'tmish ajdodlarga munosabati haqida ma'lumot beruvchi qimmatli manbalar sanaladi.

Xalq qissalari orasida tarixiy shaxslar, xususan, ijod ahli timsollari ishtirok etadigan asarlar ham talaygina. Ularning ayrimlari biografik xarakterga ega bo'lgan asarlar ("Shoh Mashrab", "Said Nasimiy", "Ibrohim Adham", "Sa'd Vaqqos" vahokazo) bo'lsa, ayrimlari sarguzasht xarakteridagi qissalar bo'lib, ularda mashhur tarixiy shaxslar ba'zan asosiy, ba'zan epizodik obraz sifatida ishtirok etadi.

XX asrning 70-80 yillarida adabiyotshunosligida xalq qissalarining ayrim namunalarini nashr ettirish, ilmiy tadqiq va tahlilga tortish bilan birga, ularning umumiy janr xususiyatlari, nazariy-poetik jihatlariga doir bir qator izlanishlar olib borildi. Biroq bu borada bajarilgan islar bugungi adabiyotshunoslikni to'la qoniqtiradi deb bo'lmaydi. Zero bu xildagi xalq qissalarining ayrim namunalari so'nggi yillardagina nashr ettirilgan bo'lsa, ayrimlari hali ham qo'lyozma va toshbosma holida o'z noshirlarini kutmoqda.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida shu xildagi, ya'ni tarixiy shaxslarning badiiy timsollari yaratilgan qissalar bilan bog'liq poetik

hodisalar, badiiylik va obrazlilik qonuniyatlari imkon doirasida tadqiq va tahlil etildi. Bunda asosan ijodkor shaxslar (Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Sayid Nasimiy, Boborahim Mashrab) hamda diniy-tasavvufiy mafkura vakillari (Hazrat Ali, Sa'd Vaqqos, Ibrohim Adham)ning badiiy timsollariga e'tibor qaratildi. Vaholonki, xalq qissalarida tilga oliggan toifa yoki tabaqalarning boshqa vakillari (Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Abduqodir Geloniy, Amir Hamza, Imom Hasan, Imom Husayn, Najmiddin Kubro va hokazo), shuningdek hukmdor tabaqa vakillari, olimlar obrazlari ham ishtirok etadi. Bu esa mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar davom etishi lozimligini ko'rsatadi.

Magistrlik dissertatsiyasi doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlar davomida quyidagi xulosalarga kelindi:

XVIII - XIX asrlar o'zbek adabiyoti tarixining ajralmas tarkibiy qismlaridan bo'lmish xalq kitoblari, xalq qissalari va shu uslubda yozilgan asarlar adabiy manba bo'lish barobarida xalqning tafakkuri, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, urf-odatlarini voqelikni badiiy idrok etish darajasi, o'tmish ajdodlarga munosabati haqida ma'lumot beruvchi qimmatli manbalar sanaladi.

Xalq qissalari orasida tarixiy shaxslar, xususan, ijod ahli timsollari ishtirok etadigan asarlar ham talaygina. Xususan, Alisher Navoiy, Abdurahmin Jomiy, Sayid Nasimiy, Boborahim Mashrab singari ajoyib so'z ustalari, mutafakkir shoirlarning badiiy timsollari yaratilgan qissalar shular jumlasidandir. Ularda mashhur tarixiy shaxslar ba'zan asosiy, ba'zan epizodik obraz sifatida ishtirok etadi.

Shunday asarlardan biri XVIII-XIX asrlarda fors-tojik va o'zbek tillarida ko'plab qo'lyozma nusxalarda tarqalgan "Mirzo Hamdam" qissasidir. O'ziga xos mazmun va g'oyalar tizimiga ega bo'lgan mazkur qissa o'zbek va tojik adabiyoti tarixida muhim o'rin egallaydi. Unda nasr va

nazmning aralash tarzda qo'llanilishi, she'riy matnlar mumtoz she'riyat an'analari asosida yaratilganligi, tili, uslubi "Xalq kitoblari" ning janriy belgilariga mos keladi. Asarning yaratilish asoslari va jarayoni, mazmun va o'oyasi, undagi obrazlarning ramziy-majoziy mohiyati haqida uzil-kesil xulosa chiqarish hozircha mushkul. Buning uchun, uning nusxalarini qiyosan tadqiq etish lozim bo'ladi.

Ustoz adabiyotshunos Q.Tohirovning bergan ma'lumotlariga ko'ra Markaziy osiyo ning turkiyzabonaholisi orasida Ijodkor shaxslar hayotidan hikoya qiluvchi, tarixiylik va badiiylik qorishib ketgan qissalar juda ko'p bo'lgan. Bular orasida Sayid Nasimiy va Boborahim Mashrab haqidagi qissalar alohida mavqega ega. Sharqning bu ikki mutafakkir shoiri haqida bitilgan qissalar garchand ikki xil usulda yozilgan bo'lsa-da bir qator mushtarak jihatlarga ega. Ikkala qissada ham oxshash qismat va umumiy dunyoqarashga ega bo'lgan tarixiy shaxslarning badiiy timsollari yaratilgan bo'lib, tarixiylik va badiiylik tamoyillari qorishib ketgan.

Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Sayid Nasimiy va Boborahim Mashrab kabi ijodkor shaxslarning badiiy timsollari bir necha tamoyillar asosida vujudga kelgan: avvalambor ular yaratgan adabiy meros mohiyati va xususiyatlari; oddiy xalq yoxud uning alohida badiiy iqtidor egalari tomonidan ushbu adabiy merosning idrok etilishi darajasi; qissaxon va qissanavislarning ijodiy mahorati; qissanavislikdagi adabiy an'analari va hokazo. Ularda ba'zan sayyor – asardan-asarga ko'chuvchi epizodlarning mavjud bo'lishi, muayyan she'r va baytlarning o'ziga xos voqeiy talqinlari yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi.

Xalq kitoblari, qissalari orasida diniy-didaktik asarlar ham alohida o'ringa ega. Ular bir tomondan, shariat va islom ma'rifatining targ'iboti uchun xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan mazkur aqidalarning mahalliy aholi madaniyati, mafkurasiga moslashishi jarayonining mahsuli hisoblanadi.

Bunday qissalarda eng ko'p ishtirok etadigan timsol Hazrat Ali timsolidir. Go'ro'g'li turkumidagi dostonlarda bo'lgani kabi Hazrat Ali (r.a.) timsollari ko'plab syujetlarni bog'lab turuvchi markaziy timsol vazifasini bajaradi. Hazrati Ali (r.a) hayoti va adabiy merosi hamma zamonlarda Sharq xalqlari orasida o'rnak bo'lib kelgan. Shuning uchun insonlar undan o'rganganlar, an'analarini davom ettirganlar. Bu ta'sir o'zbek mumtoz adabiyotida ham sezilarli. Avvalo, o'zbek xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotida Hazrati Ali(r.a) hayoti, shaxsi haqidagi jangnoma asarlar borki, ularda Hazrati Ali(r.a)ning qahramonligi, insonparvarligi va islom dini ravnaqiga qo'shgan xizmati pandnoma ruhida beriladi. Shuningdek, Hazrati Ali (r.a) adabiy merosi ta'sirida vujudga kelgan asarlar ham borki, ularning tarbiyaviy, didaktik jihatlari beqiyos. Har ikki jihatning ham inson kamolotida muhim sanalgan tarbiyaviy ma'rifiy g'oyalar bilan sug'orilganligi bilan ahamiyatlidir.

Hazrat Ali shaxsiyatlari bir tomondan olim, mutafakkir ijodkor, shoirlar sardori sifatida Sharq xalqlari mafkurasi va badiiy ijodiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan e'tiqodda sobitlik, mardlik, jasorat, harbiy mahorat kabilarning o'ziga xos timsoli vazifasini bajargan. Shu mavzuda tadqiqot olib brogan olim Shamsulhaq Oriyonfarning ma'lumot berishicha, ayrim rivoyat va afsonalarda Hazrat Ali afsonaviy pahlavon Rustam bilan ham yonma yon tasvirlangan [. 16].

Hazrat Ali haqida bitilgan asarlar orasida "Zarqum qissasi", "Dostoni Anqou Qahqaha", "Qissayi Ubudiyati Shomiy" qissalari alohida o'ringa ega. Ularda Hazrati Alining bahodirona kurashi tufayli el boshidan zulm tig'i va qora bulutlarning daf etilishi, o'z e'tiqodi, xalqlar tinchligi va tengligi uchun o'z jonini ham ayamaganini ko'rsak, jang maydonida asir tushgan kishilar va o'g'illari uchun bir tirik inson, ota sifatida qayg'u alam chekanining guvohi bo'lamiz. Shuni ta'kidlash lozimki, qissa qahramonlari din, mazhab, irq,

millatlar o`rtasida emas, balki har qanday jamiyatdagi “yomon” va “yaxshi” kishilar o`rtasida kurash olib boradilar.

Hazrat Ali qatnashadigan o`gzaki ijod namunalari hamda xalq qissalari xalqning turmush tarzi, asar yaratilgan tarixiy sharoit bilan chambarchas bog`langan bo`lib, ularda Hazrat Ali timsoli tarixiy haqiqat bilan birga afsonaviy va ertak qahramonlariga ham yaqinlashtiriladi.

Hazrat Ali ishtirok etadigan turkum qissalar orasida “Sa`d Vaqqos” asari ham alohida o`ringa ega. Tarixan Hazrat Ali yoxud Amir Hamza singari shijoat, jasorat va mardlik timsollaridan bo`lgan mazkur tarixiy shaxs haqida bitilgan qissalarda Sa`d Vaqqos mustahkam e`tiqod, saxovat va himmat timsoli sifatida ham namoyon bo`ladi. U haqda yaratilgan va xalq orasida katta shuhrat qozongan qissalar adabiyotshunoslikda hali yetarli darajada o`rganilmagan.

Tarixiy shaxslarning badiiy timsollari yaratilgan xalq qissalarida tarixiy voqelik va badiiy to`qima oziga xos tarzda ifodalanadi. Ularda tasvirlanayotgan shaxsning jamiyatdagi mavqei, asar muallifining saviyasi va mahorati, g`oyaviy maqsadiga muvofiq holda tarixiy voqelik turli darajada namoyon bo`ladi. Badiiy to`qimalar esa ba`zan ijodiy topilma, ba`zan an`anaviy epizidlarning qayta ishlanishi ekanligi ko`zga tashlanadi.

Xalq qissalardagi obrazlar mumtoz asarlardagi timsollardan farqli o`laroq, oddiy kishilar dunyoqarashi, ruhiyatiga yaqin. Ularning hissiyotlari, qayg`u va iztiroblari ham xursandchiligi ham oddiy kitobxonlarning tuyg`ulariga hamohangdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Siyosiy va mafkuraviy adabiyotlar

1. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. - Т.: Янги авлод, 2001.- 184 б.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008.-176 б.
3. Каримов И.А. Адабиётга эътибор, маънавиятга эътибор // Ўзбек адабиёти ва санъати. 2009 йил, 3-июль.
- 4.

II. Ilmiyadabiyotlar

5. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. 2-китоб. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – 346 б.
6. Абдуғафуров А. Эрк ва эзгулик куйчилари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. -160 б.
7. Арасли Ҳ. Имодиддин Насимий. – Т.: Фан, 1973. – 76 б.
8. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиёти тарихи. I қисм. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002.
9. Валихўжаев Б.Н. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. -Т.: Ўзбекистон, 1993 . -191 с.
10. Валихўжаев Б.Н. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Т.: Фан,1974. – 149 б.
11. Жалолов Ғ. Ўзбек фолклорида жанрлараро муносабат. – Т.: Фан, 1979. - 192 .

12. Жуманиёзов Р. Халқ китобларини ўрганишнинг муҳим масалалари. «Ўзбек тили ва адабиёти» журналі. 1988 й. 5-сон. 35-39 б.
13. Зокиров М. Эрк ва маърифат куйчилари. – Т.: Адабиёт ва санъатнашриёти, 1984. – 140 б.
14. Ислон энциклопедияси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004.
15. Имомов К. Ўзбек халқ прозаси. – Т.: Фан, 1981. - 101 б.
16. Каттабеков А. Тарихий ҳақиқат ва бадиий маҳорат. – Т.: Фан, 1982. – 127 б.
17. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. Биринчи китоб. –Т.: Ёзувчи, 1996. -272 б.
18. Мажидов Р. «Халқ китоблари» термини ҳақида. Адабиётга оид тадқиқотлар. –Т. 1978. 169-176 б.
19. Маҳмудова Р. Халқ китоблари ва айрим қиссалар. Адабий мерос. 1971. 2-сон. 254-257 б.
20. Орзибеков Р., ТоҳировҚ. Жомий ва XIX аср ўзбек адабиёти // Абдурахмон Жомий (Илмий мақолалар тўплами). – Тошкент, 1997. 105-112-бетлар.
21. Орзибеков Р. Ўзбек адабиёти тарихи (XVII-XVIII асрлар). Ўқув қўлланма. -Сам.: СамДУ нашри, 2004. -122 б.
22. Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. -383 б.
23. Маҳмудов Қ. Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибат ул-ҳақойиқ» асари ҳақида. – Т.: Фан, 1972.
24. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг репертуарлари. – Т.: Ёзувчи, 1979.
25. Муҳиддинов М. Комил инсон-адабиёт идеали. – Тошкент: Маънавият, 2005

26. Муҳиддинов М. Нурли қалблар гулшани (Монография). – Т.: Фан, 2007. – 167 б.
27. Оқбўтаев. Х. Халқ китоблари ва адиблар // Адабий мерос. 1 (55). – Т.: Фан, 1991. 65-70-бетлар.
28. Равшанов Ф. Холис ва унинг адабий мероси. – Тошкент: Фан, 1996.
29. Салоҳий Д. Ҳуррият ҳарорати. – Т.: Фан, 2007. – 111 б.
30. Сарвар Очил. Ҳазрат Али – шеър ва илм сарвари. – Тошкент: - Техрон, 2004.
31. Тоҳиров Қ. Алишер Навоий ва XVIII-XIX асрлар қиссалари // Алишер Навоий ижодини ўрганиш масалалари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1981.
32. Тоҳиров Қ. Октябрдан аввалги ўзбек-туркман адабий алоқалари проблемасига доир. -Т.: Фан, 1988 -1156.
33. Тоҳиров С. Ўзбек шоири Асирий ва «Саид Насимий» қиссаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 2003 йил, 4-сон. 71-73-бетлар.
34. Тоҳиров С.Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибат ул-ҳақойиқ» достони: матн, тадқиқ ва таҳлил. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2009.
35. Тоҳиров С. Алишер Навоийнинг "Ҳайрат ул-аброр"достони нашрлари-даги айрим муаммолар хусусида // БухДУ Илмий ахбороти. 2013 йил, № 2, 70-73-бетлар.
36. Тўхлиев Б. Адабиёт (Академик лицей ва касб-хунар коллежлари учун дарслик). – Т.: Ўқитувчи, 2002.
37. Шодиев Э. Шоир Машрабнинг адабий таҳаллуслари // Адабий мерос. 2 (36) . 1986. 38-42-б.
38. Юсупов Ж. Сўнгги сз ўрнида // Бобораҳим Машраб. Меҳрибоним қайдасан. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990.
39. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 3-том. – Тошкент: Фан, 1978.
40. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.

41. Qosimov B. vaboshqalar. Adabiyot (10-sinf uchun darslik). - T.: O`qtuvchi, 2004. – 105-bet.
42. Қуронбеков А. ва бошқалар. Мирзо Ҳамдам қиссаси // Мирзо Ҳамдам қиссаси. – Тошкент: Фан, 1998. 3-6-бетлар.
43. Гафур Гулом. Икки Машраб. МАТ. XI том. – Т.: Фан, 1989.
44. Ҳайитметов А. Мерос ва ихлос (Адабий-танқидий мақолалар тўплами). – Т.: Фан, 1985. – 208 б.
45. Ҳаққулов И. Ким нимага интилади? (Адабий суҳбатлар). – Т.: Зарқалам, 2006. – 143 б.

III. Badiiy manbalar

46. Абдурахмони Жомий. Асарҳои мунтахаб. Жилди якӯм. – Душанбе: Ирфон, 1964.
47. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
48. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 12-том. – Тошкент: Фан, 1996.
49. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. МАТ. 20 томлик. 14-том. – Тошкент: Фан, 1998.
50. Алишер Навоий. Назм ул-жавохир. МАТ. 20 томлик. 15-том. – Тошкент: Фан, 1999.
51. Андалып. Несими (Танқидий матнни тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Г.Назаров). – Ашгабат: Ўлим, 1978. -118 б.
52. Андалып. Дессанлар. – Ашгабат: Туркменистан, 1991.
53. Asiriyy. Sayid Nasimiy // Norimova O. Said Nasimiy” qissasi matni va badiiy tahlili. Magistrlik dissertatsiyasi. – Samarqand, 2009.

54. Аҳмад Югнакий. Ҳибатул-ҳақойиқ // Тоҳиров С. Адиб Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибатул-ҳақойиқ» достон: матн, тадқиқватаҳлил. - Самарқанд: СамДУнашри, 2009. 64-96-бетлар.
55. Иброҳим Адҳам (Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Қ.Тоҳиров) –Самарқанд: Зарафшон, 1993.
56. Иброҳим Адҳам қиссаси (Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи С.Рафъиддин) – Т.: Ёзувчи, 1991. – 192 б.
57. Машраб Бобораҳим. Меҳрибоним қайдасан. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990.
58. Мирзо Ҳамдам қиссаси (Форсийдан А.Қуронбеков, Ҳ.Бобобеков, М.Ҳасаний таржимаси). – Т.:Фан, 1998. – Б. 54.
59. Пайғоми Ҳазрати Али. – Душанбе: Адиб, 1992. – 45 с.
60. Саъд Ваққос қиссаси. Турк ФА Махтумкули номидаги АИ қўлёзмалар фонди инвентар № 1849 (ҚТоҳировнинг шахсий кутубхонасида сақланадиган қиссанинг транслитерация қилинган вариантыдан фойдаланилди).
61. Фаридуддин Аттор. Мантиқ ут-тайр. - Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006.
62. Қиссаи Машраб (Нашрга тайёрловчи Сайфиддин Рафъиддин, Муҳаммад Ёқуб Салим ўғли, Шарофхон Жамолхон ўғли). – Т.: Ёзувчи, 1992. – 176 б.
63. Ҳазрат Али ҳақида қиссалар (Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи С.Рафъиддин). – Тошкент: Ёзувчи, 1992.

IV. Dissertatsiya va avtoreferatlar

64. Борджакова К. Образ Алишера Навои (Мирали) в туркменском народном творчестве. Диссерт. канд. наук. – Ашхабат, 1973.

65. Мусурмонов Э. Раҳимбобо Машраб ва унинг бадиий адабиётдаги талқини. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Самарқанд, 1995. – 140 б.
66. Ориёнфар Ш. Образ пресвятого Али в фарсиязычном фольклоре. Диссерт. канд. наук. – Душанбе, 2002.
67. Norimova O. Saiyd Nasimiy” qissasi matni va badiiy tahlili. Magistrlik dissertatsiyasi. – Samarqand, 2009.
68. Тоҳиров С. Ўзбек мумтоз адабиётида туркум сюжетлар ва «Нўҳ манзар». Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Самарқанд, 1995. – 140 б.
69. Тоҳиров Қ. Туркман шоири Андалиб ва ўзбек адабиёти. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Самарқанд, 1964. – 251 б.
70. Юлдашева С.А. Бадиий-биографик қиссалар поэтикаси («Қиссаи Иброҳим Адҳам», «Қиссаи Сайид Насимий», «Қиссаи Машраб» асарлари асосида). Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Самарқанд, 2011. – 154 б.